

1 Quyida berilgan gapda qaysi so`z(lar)dan keyin tire qo`yiladi? **Endi senlar o`qib, oq-qorani taninglar, deydi Xoliyor amaki. Hozir dunyo ilmi odamlarniki.**

- deydi, Xoliyor amaki
- taninglar
- taninglar, Xoliyor amaki
- Xoliyor amaki

2 Ot bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi(lar) ishtirok etgan gapni aniqlang.

- Besh-olti keksa yig`ilib maslahat qilishdi.
- Kumush qishdan, zumrad bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati.
- Aytilgan so`z - otilgan o`q.
- Ko`cha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi.

3 Quyidagi berilgan nechta gapning egasi va kesimi tarkibidagi qo`shimchalar ismning munosabat shakli va fe`lning munosabat shakli sifatida o`zaro omonimlik hosil qilgan? 1. Bitta o`g`limni qoldirishga ko`zim qiymayapti-yu, qanday qilib uchovingni tashlab ikkalamiz shaharga ketamiz. 2. Yirtib tashlagandan ko`ra yondirib tashlaganing yaxshidir. 3. Tanam zirqirab og`riyotganiga ham e`tibor bermadim. 4. Uchoving bu vazifani uddalading.

- bitta
- to`rtta
- uchta
- ikkita

4 **Sening tug`ilib o`sgan shahringdan ayrilib yashashingga ko`zim yetmasdi, buni hammadan ham men juda yaxshi bilar edim.** Ushbu gapda fonetik o`zgarish asosida yozilgan so`zlarda necha o`rinda portlovchi shovqinli undoshlar ishtirok etgan?

6 ta

4 ta

5 ta

3 ta

5 Tarkibida sifat ishtirok etmagan qo`shma otlarni aniqlang. 1) mingoyoq; 2) achchiqtosh; 3) qizilishton; 4) havorang; 5) oybolta; 6) karnaygul; 7) olaqarg`a

2, 3, 4, 7

1, 5, 6

1, 4, 5, 6

1, 4, 5

6 **Qaysi gapdagi yasama so`z uchun yasama ot yasashga asos bo`lib kelgan?**

Munkayib qolgan Oyxol momo Akromni quchoqlab bag`riga bosdi.

O`qituvchi bo`lish uchun chidam bilan o`qiladi.

So`rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.

Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo`ldi.

7 **Har xil so`z turkumi bilan ifoda qilingan payt holi uyushgan gapni aniqlang.**

Siz ertalab, tushlikdan so`ng bu dorini iste`mol qiling.

Salima kecha ertalab biznikiga kelib ketdi.

Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo`liga olar, suyar va yuzlarini, sochlarini silab qo`yar edi.

Oradan ikki yil o`tgandan keyin, oltmish yoshga yetgandan keyin, eski kasali yana qo`zg`adi.

---

8 Men o`smirlar va yoshlarning jinoyat ko`chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab tura olmayman", degan adib kim edi?

Ch.Aytmatov

X.To`xtaboev

T.Malik

J.London

---

9 Janni Rodarining ilk to`plami qanday nomlangan?

"Rim ertaklari"

"Quvnoq she`rlar kitobi"

"Kitoblar jangi"

"Quvg`indilar taqdiri"

---

10 Zamon menga juda qimmat nasihat etdi(1). Agar bilsang, zamon to`la nasihat erur(2). Ajratib ko`rsatilgan so`zlar haqidagi to`g`ri fikrni belgilang.

1-qo`shma fe`l, 2-bog`lamali ot kesim

1-murakkab ot kesim, 2-murakkab fe`l kesim

1-to`ldiruvchi, kesim, 2-murakkab ot kesim

1, 2-qo`shma fe'l

11 Jo`nalish kelishigi qo`shimchasi quyidagi nechta ko`makchi bilan ma`nodosh bo`la oladi? **muvofig, uchun, sari, tomon, oid**

4 ta

5 ta

3 ta

2 ta

12 Qaysi javobda quyida berilgan gapdagi juft so`zlarning sintaktik vazifasi to`g`ri ko`rsatilgan? **Yakshanba kuni birin-ketin o`g`il-qiz, nevara-kelinlar yig`ila boshlashdi.**

ega, aniqlovchi

hol, ega

faqat ega

to`ldiruvchi, ega

13 Cho`lponning she'riy to`plamlari nomi berilgan qatorni toping.

"Uyg`onish", "Tong sirlari", "Soz", "Buloqlar"

"Uyg`onish", "Tong sirlari", "Go`zal yozg`ichlar", "Adabiyot parchalari"

"Uyg`onish", "Hujum", "Soz", "Adabiyot parchalari"

"Go`zal yozg`ichlar", "Tong sirlari", "Uyg`onish"

14 "O`kin, pushaymon bo`l, ko`rgiliging, taqdiring uchun, tarbiyat qilgan dono xoqoningga, yemirilgan, qo`ldan

ketgan yaxshi davlatingga. O`zing adashding, oraga yomonni kirgizding. Qurolli qaydan kelib tarqatib yubordi, nayzali qaydan kelib surib ketdi... Borgan yerda yaxshilik shu bo`ldi: qoning suvday oqdi, suyaging tog`day uyulib yotdi, bek bo`ladigan o`g`il bolang qul bo`ldi, suluv qiz bolang cho`ri bo`ldi". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

- "Qutadg`u bilig" dostonidan
- Kul Tigin bitiktoshidan
- "Devonu lug`atit-turk" asaridan
- Tunyuquq bitiktoshidan

15 Nodira qaysi g`azalida yorining tik qomatini yoki, aksincha, ishqiy iztiroblari oqibatida o`zining tik qomati bukilgani holatlarini tasvirlash maqsadida mumtoz she`riyatimizda an'anaviy bo`lgan daraxtlar ("sarvi ozod", "sarvi noz", "naxli oh", "shoxi shamshod") timsollaridan mahorat bilan foydalanadi?

- "Vasl uyin obod qildim..."
- "Kel, dahrni imtihon etib ket..."
- "Doda keldim..."
- "Fig`onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin..."

16 *To`y xarjida yuzta boy yapon Bir kambag`al o`zbekcha yo`qdir.* (E.Vohidov) Ushbu she`riy parchada urg`u ajratib ko`rsatilgan so`zning nechanchi bo`g`iniga tushadi?

- ikkinchi bo`g`iniga
- bu so`z urg`u olmaydi
- uchinchi bo`g`iniga
- birinchi bo`g`iniga

17 "Alpomish" dostonida Alpomish "... Men sachratib borsam minib bir tulpor, O`zima yor, bobo, senga xizmatkor..." deb kimga aytgan?

- Boybo`riga
- Shohimardon pirga
- Qultoyga
- Boysariga

18 Alisher Navoiyning qaysi g`azalida har bir baytida kamida bir tazod san`atiga duch kelamiz?

- "Jong`a chun dermen: Ne erdi o`lmakim kayfiyati?.." g`azalida
- "Bo`l" radifli g`azalida
- "Yo`q" radifli g`azalida
- "Qilg`il" radifli g`azalida

19 - **Men ko`rganman osmonlarning tinig`ini, Toshlar tegdi, terib oldim sinig`ini. Beshikdagi go`daklarga tig` sanchdilar, Shunda bildim mardlaringning qilig`ini.** Fonetik o`zgarishga uchragan so`zlar sonini aniqlang.

- 4
- 3
- 6
- 5

20 **Sen bo`lmasang so`zlarning Bag`ri ming tilim bo`lar, Onajon, ona tilim, Mening shohona**

**tilim.** (Barot Yarash) Ushbu she'riy parchada so`z yasovchi qo`shimchalar necha o`rinda ishtirok etgan?

- 1
- 2
- 3
- 4

21 Tasavvuf adabiyotida talqin etilishicha, inson komillik yo`liga birinchi qadamni qanday qo`yishi mumkin?

- tariqat bosqichiga kirganda
- haqiqat bosqichiga kirganda
- shariat bosqichiga kirganda
- har uchala bosqichni o`taganda

22 **Badavlat donishmanddan so`radilar: "Turmushingiz farovon bo`lsa ham, nima uchun sizning xursand bo`lib yurganingizni ko`rgan emasmiz?" U shunday javob beribdi: "Chunki och-yalang`och yashayotganlarni men hech qachon unutmayman"**. Keltirilgan parchada olmoshning nechta turi ishtirok etgan?

- 4 ta
- 2 ta
- 5 ta
- 3 ta

23 Qaysi gapda o`zlik olmoshi predmetni ko`rsatish uchun qo`llanilgan?

- Biz o`z tuprog`imizni ko`z qorachig`iday asraymiz.

- Soat o`zi ishlab ketdi.
- Rostini aytsam, o`zim ham unchalik yomon bola emasman.
- O`zlik olmoshi predmetni ko`rsatish uchun ishlatilmaydi.

24 **na inkor bog`lovchisi qaysi javobda sodda gaplarni bog`lamagan?**

- Na turmushida halovat bor, na yemishida rohat bor.
- Na bironta odamning sharpasi ko`rindi, na bir shitirlagan ovoz eshitildi.
- Ilmsiz odam yog`och kabidir: undan na o`ziga, na xalqiga foyda bor.
- Na so`zlarida ma`no bor, na ishlarida unum bor.

25 **Alisher Navoiy qaysi devoni haqida "yigitlig-u oshuftalig` va shabob-u oliftalig` yozi-yu dashtida yuzlangan nodir vaqoye` bila piyrosta bo`lib erdi" deb yozadi?**

- "Badoye ul-vasat"
- "Navodir ush-shabob"
- "G`aroyib us-sig`ar"
- "Favoyid ul-kibar"

26 **Qaysi gapda yasama otdan hosil bo`lgan sifat ishtirok etgan?**

- Kutilmagan quvonchli xabardan boshi aylanib ketdi.
- Tinchlik oliy ne'mat ekanligini unutmang.
- Menga o`xshagan esli-hushli bolaga zoriqib o`tirgan ekan.



Sergaplik odamlar ichida qadringni tushiradi.

27 Quyida keltirilgan parcha qaysi asardan olingan va kim(lar) haqida? "Zindondagi bandi hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo`lmoq istasa, yomonmi?"

"Ulug`bek xazinasini"; Ulug`bek

"Kecha va kunduz"; Enaxon va uning kelinbibisi

"O`tkan kunlar"; Zaynab

"Mehrobdan chayon"; Ra'no

28 **Singlim deymi, Onam deymi, Hamdard-u hamxonam deymi, Oftobdan ham o`zing mehri Ilig`imsan, Vatanim.** (Muhammad Yusuf) Ushbu she'riy parchada yasama so`zlar necha o`rinda qo`llangan?

2

4

3

1

29 Qaysi maqolda to`rt o`rinda yasama so`z qo`llangan?

O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir.

Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar.

Birni ko`rib, fikr qil, Birni ko`rib, shukur qil.

Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma!

30 **Bu holatni Amir Temur saltanatida ham ko`rishimiz mumkin.** Ushbu gapda yopiq bo`g`in bilan

tugagan soʻzlarda shovqinlilarga kiruvchi nechta sirgʻaluvchi jarangli undosh ishtirok etgan?

- 2 ta
- 4 ta
- 1 ta
- 3 ta

31 Tarkibida sonor tovushi ishtirok etmagan soʻz qatnashgan gapni toping.

- Chol unga yaqinlashib salom berdi.
- Men ular bilan toʻrt marta gaplashdim.
- Men shu Vatan qoʻynida undim-oʻsdim.
- Nogoh entikdi-yu, egildi kamon.

32 Baytlari oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlgan, maʼno-mantiq jihatidan kuchli tarzda biri ikkinchisini taqozo etib keladigan gʻazallar qanday ataladi?

- musalsal gʻazallar
- yakpora gʻazallar
- parokanda gʻazallar
- voqeaband gʻazallar

33 Alisher Navoiy oʻzining qaysi devoni haqida “umrining oxirlarida yuzlangan ishq dard-u ranji foydalarikim, jonsoʻz oh urmoq-u jon topshurmoqdurkim, anda sabt boʻlubdur” degan fikr keltirgan?

- “Badoye ul-vasat”
- “Favoyid ul-kibar”

"Navodir ush-shabob"

"G` aroyib us-sig` ar"

34 O`lmas Umarbekov adolatsiz tuzum mamlakatning eng chekkasida yashayotgan siyosatdan yiroq oddiy kishilar taqdirida ham fojiali iz qoldirishini ta`sirli aks ettirgan asari nomini aniqlang.

"Qiyomat qarz"

"Sevgim, sevgilim"

"Odam bo`lish qiyin"

"Yoz yomg`iri"

35 Quyidagi qaysi ijodkor o`zini muhit girdobidagi bir somon parchasiga o`xshatgan?

Cho`lpon

Avaz O`tar

A.Avloniy

Fitrat

36 Qaysi qatorda bo`lishsizlik shakli orqali davomiy bo`lishsizlik ma`nosi ifodalangan?

U darslarini tayyorlamay qo`ymadi.

U darslarini tayyorlamay qo`ydi.

U darslarini tayyorladi.

U darslarini tayyorlab qo`ymadi.

37 Qaysi gapda ko`makchi vositasida bog`langan boshqaruv munosabati mavjud?

Ota yuz-qo`llarini yuvgandan so`ng sal nariga borib o`tirdi.

Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo`lning azobidan ham ortiqroq bo`ldi.

O`quvchi bolalarga, yigit va qizlarga bag`ishlab yozilgan qo`shiqlar ko`p.

Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi.

**38 So`z birikmasida tobe bo`lakni hokim bo`lakka bog`lovchi vositalarning qo`shilish o`rni qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?**

kelishik, ko`makchi va ohang hokim qismga, egalik qo`shimchasi esa tobe qismga qo`shiladi.

kelishik, ko`makchi va ohang tobe qismga, egalik qo`shimchasi esa hokim qismga qo`shiladi.

kelishik hokim qismga, egalik qo`shimchasi tobe qismga qo`shiladi, ko`makchi va ohang hech qaysi qismga qo`shilmaydi.

kelishik tobe qismga, egalik qo`shimchasi hokim qismga qo`shiladi, ko`makchi va ohang hech qaysi qismga qo`shilmaydi.

**39 Otlashgan so`z to`ldiruvchi vazifasida**

Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda bo`l.

To`qayga o`t tushsa, ho`l-u quruq baravar yonadi.

Yomon bilan yo`ldosh bo`lsang, yomondan burun o`lasan.

40 **Do`stlaringning mehrini qozonay desang, ular senga yaxshi munosabat qilishini xohlasang, sen ham ularga yaxshi muomalada bo`lishing lozim.** Berilgan gap murakkab qo`shma gapning qaysi turiga kiradi?

- bir necha bosh gapli murakkab qo`shma gap
- aralash murakkab qo`shma gap
- bir necha ergash gapli murakkab qo`shma gap
- qismlari uyushgan murakkab qo`shma gap

1 Quyida berilgan gapda qaysi so`z(lar)dan keyin tire qo`yiladi? **Endi senlar o`qib, oq-qorani taninglar, deydi Xoliyor amaki. Hozir dunyo ilmli odamlarniki.**

- taninglar, Xoliyor amaki
- deydi, Xoliyor amaki
- taninglar
- Xoliyor amaki

2 **va undoshlarining farqlovchi belgilari quyidagi qaysi tasnifda namoyon bo`ladi?**

- ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra
- hosil bo`lish o`rniga ko`ra
- tarkibiga ko`ra
- hosil bo`lish usuliga ko`ra

3 Tarkibidagi bir keng unli o`rnida boshqa keng unli so`z ma'nosini farqlashi mumkin bo`lgan so`zlar to`liq ko`rsatilgan javobni belgilang. 1) undosh; 2) jiyron; 3) tong; 4) malik; 5) xom

- 1, 5
- 1, 3, 4, 5

1, 4, 5

1, 2, 3, 4

4 Quyida berilgan gapda nechta vergul qo`yilishi kerak? **Kel o`zbek qardoshim kel mening aziz qo`nog`im bo`l qalbing huzurli o`lsun - dedi u o`rnidan turib.**

5 ta

3 ta

4 ta

6 ta

5 **Kissasida yarimta o`chirg`ichi qolgan ekan.** Ushbu gapda tarkibidagi hamma morfemalari omonimlik xususiyatiga ega bo`lgan so`z(lar) qaysi gap bo`lak(lar)i vazifasida kelgan?

ega, aniqlovchi

ega, kesim

ega

to`ldiruvchi

6 Qaysi asardagi personaj haqida "mehnat bilan yashab, yetti-sakkizni tug`ib, yoshi ham qirqlarg`a borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo`lib qolg`an, shuning uchun birartaga tegib olishi to`g`risida o`ylash ham behuda" degan jumlar keltirilgan?

"Mehrobdan chayon"da Anorbibi

"Kecha va kunduz"da Enaxonning onasi

"Otkan kunlar"da To`ybeka

"O`tkan kunlar"da Jannat opa

7 **Ism tarkibida keluvchi lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalar bilan shakldosh bo`la oladigan so`z yasovchi qo`shimchalarni aniqlang. 1) -cha; 2) -im; 3) -loq; 4) -in; 5) -chak; 6) -ma; 7) -gina**

1, 3, 5

1, 2, 3, 4, 5, 6

1, 3, 5, 7

1, 2, 3, 4

8 **Quyidagi qaysi asarda malika saroyi butun umri befoyda boyliklarni deb so`lib, adoyi tamom bo`lgan o`lmas Kashcheyning afsonaviy qasriga o`xshatilgan?**

"Kichkina shahzoda" (Hans Kristian Andersen)

"Hech qayoqqa olib bormaydigan yo`l" (Janni Rodari)

"Shahzoda Plombir" (Janni Rodari)

"Qor malikasi" (Hans Kristian Andersen)

9 **"Ajab zamona", "Kajdor zamona", "Dar mazammati zamona" satiralari muallifi kim?**

Zavqiy

Furqat

Maxmur

Muqimiy

10 **Ko`zimdan yomg`irlar to`kilar tinmay... Ushbu gapda ma`no ko`chishining qaysi turi kuzatiladi?**

sinekdoxa

metonimiya

metafora

vazifadoshlik

11 Lutfiy g`azallaridan qaysi biriga Nodira o`xshatma yozgan?

"Ayoqingga tushar har lahza gisu" g`azaliga

"Xoh inon, xoh inonma" radifli g`azaliga

"Bu ko`nguldur, bu ko`ngul" radifli g`azaliga

"Ne bo`lursan" radifli g`azaliga

12 "Alpomish" dostonida quyidagi satrlar kimning tilidan aytilgan? ... *Mard yigitning yori talash bo`lami, Er yigitning yorin qalmoq olami?*

Qaldirg`och

Barchinoy

Boybo`ri

Alpomish

13 *Odamlarning ma'naviy, madaniy, siyosiy fikr maydonlariga tortish, har bir fuqaroning uni yoshidan qat'i nazar, shu maydonni qatnashchisiga aylantirish bizni eng samarali yo`limizdir.* Berilgan gapdagi kelishiklar bilan bog`liq uslubiy xatolarni tuzatib, gapdagi vositasiz to`ldiruvchilar miqdorini aniqlang.

4 ta

2 ta

1 ta



3 ta

14 Odil Yoqubovning "Ulug`bek xazinasi" romanida bir paytlar uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug`bek oldiga bosh urib kelgan va undan ko`p yaxshiliklar ko`rgan iste`dodli shoir, arslonyurak jangchi kim edi?

Qalandar Qarnoqiy

Sakkokiy

Sulton Jondor

Ali Qushchi

15 *Manga ne yor-u ne oshiq havasdur, Agar men odam o`lsam, ushbu basdur!* Alisher Navoiy "Xamsa"sidan olingan ushbu baytda e`tirof etilgan yuksak ma`naviy dunyoqarash sohibasi kim?

Shirin

Mehr

Layli

Dilorom

16 *"Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma`lum va mashhur shaxs, - deb yozadi Najmiddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida.*

*- U Navoiyga bag`ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do`sti edi". Berilgan ko`chirma gapli qo`shma gapning muallif gapi qismida kesim qaysi zamon ma'nosini anglatgan?*

hozirgi zamon

kelasi zamon

o`tgan zamon

hozirgi-kelasi zamon

17 "Dunyo - kattakon ko`l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to`lqin og`alar bo`lsa, ketingdagi to`lqin inilardir. Navbat o`tishar, avvalgiday bo`lishar". Ushbu hikmatli so`zlar qaysi asarda keltirilgan?

Abay "Nasihatlar"

Navoiy "Mahbub ul-qulub"

M.Koshg`ariy "Devonu lug`ot it-turk"

Gulxaniy "Zarbulmasal"

18 Quyidagi qaysi so`zlar o`z paronimlari bilan bir xil so`z turkumiga mansub bo`ladi? 1) yod, 2) ham, 3) burch, 4) bob, 5) afzal, 6) eg

2, 3, 6

3, 6

3, 5, 6

1, 2, 4, 5, 6

19 Bosh gapi egasi noma'lum gap bo`lgan ergashgan qo`shma gapni aniqlang.

Har kishi el uchun topsa agar ranj, Oqibat muyassar bo`lar unga ganj.

Dushman oz deb g`ofil bo`lmaslik kerak, chunki ko`p o`tinni ozgina o`t kuydiradi.

Odamlar siz bilan odatdagidek gaplashishni xohlashmasa, aybni o`zingizdan qidiring.

Odamning shunday do`stlari bo`ladiki, ularning har biri bilan fe`liga qarab gaplashishga to`g`ri keladi.

20 "Bolgar qo`shiqlari", "Charos" nomli to`plamlar muallifi kim?

- O`lmas Umarbekov
- Mirkarim Osim
- Xayriddin Saloh
- Mirmuhsin

21 **Angladimki, olamda Yurt tanho, Vatan tanho, Nokaslar emas, yo`q, yo`q, Yolg`iz Sen baland, tanho.** Ushbu gapdagi kesimlar to`liq ko`rsatilgan qatorni toping.

- yurt tanho, Vatan tanho, baland, tanho
- tanho, tanho, baland, tanho
- angladimki, tanho, tanho, baland, tanho
- angladimki, yolg`iz, baland, tanho

22 **"Ko`rar ko`zim ko`rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo`ldi (es-hushimdan ayrildim), jonim azobda qoldi"**. Ushbu parchada tasvirlanayotgan azobga sabab nima edi?

- Kul Tiginning vafoti
- Turk davlati, hukumatining buzilgani
- Tabg`achning qo`shin tortgani
- Turk beklarining Tabg`ach xoqoniga qaram bo`lgani

23 Qaysi ijodkor she`rlaridan birida o`n ikki buloqni topib qalbida o`n ikki she`r birdan jo`sh urganligini ta`kidlaydi?

- Oybek

Furqat

Abdulla Oripov

Cho`lpon

24 Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o`z kuchimiz bilan, o`zaro keng muhokama qilish yo`li bilan bartaraf qiladigan bo`lib qoldik. Ushbu gap tarkibida necha o`rinda yasama fe'l ishtirok etgan?

3

5

6

4

25 Alisher Navoiyning qaysi g`azalida maqta'dan boshqa barcha baytlarning birinchi misralarida ichki qofiyaga qat'iy amal qilingan?

"Deyin" radifli g`azalida

"Yo`q" radifli g`azalida

"Etmas" radifli g`azalida

"Bo`l" radifli g`azalida

26 Ajratib yozish qoidasiga muvofiq kelmaydigan javobni toping.

birinchi qismi sifat, ikkinchi qismi atoqli ot bo`lgan geografik nomlar ajratib yoziladi

qo`shma fe'l qismlari ajratib yoziladi

tarkibida **bo`yi, orti, oldi** so`zlari bo`lgan joy nomlari ajratib yoziladi

o`zaro -dan qo`shimchasi bilan bog`langan takror so`zli birikmalar orasiga chiziqcha qo`yilmaydi va qismlari ajratib yoziladi

27 Qaysi javobda orttirma nisbat shakllari yasama o`timsiz fe'llarga qo`shilgan?

o`xshatmoq, sakratmoq

yuvintirmoq, bezantirmoq

bo`shatmoq, bellashtirmoq

o`ynatmoq, sarflatmoq

28 "Avesto"da Zardusht she'rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar qanday atalgan?

gohlar

visparad

yashtlar

vendidod

29 "Insonni tug`ish va o`stirish qanchalar qiyin, o`ldirish esa oson". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?

"Qochoq"

"Me'mor"

"Oq kema"

"Dahshat"

30 Qaysi javobda harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydigan ko`makchi fe'llar to`g`ri ko`rsatilgan? 1) chiqmoq; 2) yurmoq; 3) olmoq; 4) yubormoq; 5) boshlamoq; 6) tashlamoq; 7) qo`ymoq; 8) yotmoq

4, 6, 7

1, 4, 6, 7, 8

2, 3, 4, 6

2, 3, 5, 8

31 Quyidagi gapda nuqtalar o`rniga qanday yordamchilar qo`llaniladi? **U ilonni aldagani ..., ... unga dunyodagi eng taniq taom insonniki emas, ... qurbaqaning go`shti ekanligini aytgani ... ta'qibga uchragan emish.**

yuklama, aniqlov bog`lovchisi, zidlov bog`lovchisi, ko`makchi

ko`makchi, zidlov bog`lovchisi, sabab bog`lovchisi, aniqlov bog`lovchisi

ko`makchi, aniqlov bog`lovchisi, zidlov bog`lovchisi, ko`makchi

aniqlov bog`lovchisi, zidlov bog`lovchisi, ko`makchi, yuklama

32 Jarangsiz jufti mavjud bo`lmagan til oldi undoshlarini aniqlang.

x, h

l, m, r, n

r, l, n

r, l, n, y

33 Tarkibida yordamchi so`zlardan faqat sof yuklama qatnashgan gapni toping.

Kaltafahmlargina odamlarning kamchiligini ko`radilar-da.

Faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan «Tafakkur gulshani»ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ham ochamiz.

Bu ishlar faqat menga kerak emas.

Sen-chun jonim fido, aziz Vatanim!

---

34 O'Imas Umarbekov adolatsiz tuzum mamlakatning eng chekkasida yashayotgan siyosatdan yiroq oddiy kishilar taqdirida ham fojiali iz qoldirishini ta'sirli aks ettirgan asari nomini aniqlang.

"Yoz yomg'iri"

"Odam bo'lish qiyin"

"Sevgim, sevgilim"

"Qiyomat qarz"

---

35 Qaysi maqolda to`rt o`rinda otlashgan so`z qo`llangan?

Kattaga hurmatda bo`l, kichikka izzatda bo`l.

Bilagi zo`r birni yiqar, Bilimi zo`r mingni yiqar.

Birni ko`rib, fikr qil, Birni ko`rib, shukur qil.

Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.

---

36 Ergash gapli qo`shma gaplarning qaysi turida ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin kelishi mumkin? 1) kesim ergash gap; 2) ega ergash gap; 3) to`ldiruvchi ergash gap; 4) aniqlovchi ergash gap.

2,3,4

1,2

1,2,3,4

3,4

37 **Bu ayyomda gina-kuduratlar va araz unitiladi, xalqlar, insonlar murosaga keladi, ahillik, birdamlik, mehribonlik qaror topadi. ( I.Karimov)** Ushbu gap qaysi javobda to`g`ri izohlangan?

uyushiq kesimli sodda gap

qismlari uyushgan murakkab qo`shma gap

yoyiq sodda gap

uyushiq bo`lakli sodda gap

38 Quyidagi qaysi janr **"echki qo`shig`i"** degan ma`noni anglatadi?

Monodrama

drama

Komediya

Tragediya

39 Usmon Nosir haqidagi quyidagi fikrlar muallifi kim?

"U

*smon she`riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo`ronday! U shunday to`polon va to`lqin bilan keldiki, uncha-muncha she`riy uslub va ijodni to`s-to`s qilib yubordi"*

Turob To`la

Hodi Toqtosh

Musa Jalil



Samad Vurg`un

40 Furqatning **"Sayding qo`yaber sayyod, sayyora ekan mendek"** misralari bilan boshlanuvchi asari qaysi janrda yozilgan?

g`azal

Musaddas

Qasida

Muxammas

1. Eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalarni aniqlang.

- 1) *Qul Ali, "Qissayi Yusuf"*;
- 2) *Qutb, "Xusrav va Shirin"*;
- 3) *Xorazmiy, "Muhabbatnoma"*;
- 4) *"O'g'uznoma"*;
- 5) *Sayfi Saroyi, "Guliston"*;
- 6) *Rabg'uziy, "Qisasi Rabg'uziy"*;
- 7) *"Tafsir"*

- a) 1, 2, 4, 5, 6
- b) 2, 4, 5, 6, 7
- c) 1, 2, 3, 4, 6
- d) 2, 3, 4, 5, 7

2. Adabiy tilning qanday shakllari mavjud?

- a) so'zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublari
- b) milliy til va adabiy til
- c) og'zaki adabiy til va yozma adabiy til
- d) so'zlashuv uslubi va kitobiy uslub

3. Tilshunoslikga oid atamalar berilgan qatorni aniqlang.

- a) yuklama, paronimlar, son, hol
- b) aniqlovchi, to'ldiruvchi, xol
- c) fonendostop, terapevt, oddiy tasvir
- d) inqilob, podshoh, feodal, dehqon

4. Quyida berilgan asarlarning qaysi biri turkiy tilda bitilgan?

- a) Navoiy "Risolayi muammo"
- b) Sa'diy Sheroziy "Guliston"
- c) Shayboniyxon "Devon"
- d) Firdavsiy "Shohnoma"

5. Zamaxshariy qaysi asarini chig'atoy (o'zbek) tiliga o'zi tarjima qilgan?

- a) "Notiqlik asoslari"
- b) "Al- Mufassal"
- c) "Asosul-balog'a"
- d) "Nafobig'ul-kalim"

6. Quyida berilgan tillardan qaysi biri o'lik tillar sirasiga kiradi?

- a) uyg'ur tili
- b) lotin tili
- c) yoqut tili
- d) yunon tili

7. XI asrda grammatikaga oid asar yozgan mashhur vatandoshimiz kim?

- a) Abulqosim Zamaxshariy
- b) Mahmud Qoshg'ariy
- c) Yusuf Xos Hojib
- d) Narshaxiy

8. Hozirgi kunda til oilalari soni - ...

- a) 30 dan ortiq
- b) 20 dan ortiq
- c) 6 ta
- d) 10 dan ortiq

9. Quyidagi tillardan qaysi biri oltoy tillar oilasiga mansub emas?

- a) yapon tillari tarmog'i
- b) eron tillari tarmog'i
- c) mo'g'ul tillar tarmog'i
- d) turkiy tillar tarmog'i

10. Qaysi qatorda hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanishi hamda rivojlanishi davri to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) oltoy davri
- b) eng qadimgi turk davri
- c) o'rta turk davri
- d) qadimgi turk davri

11. Tilga xos xususiyatlar qayd etilgan to'g'ri javobni belgilang.

- 1) *hali voqealanmagan imkoniyat;*
- 2) *faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til;*
- 3) *jamiyat a'zolariga barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy- ruhiy vosita;*
- 4) *shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'luvchi hodisa;*

- a) 1, 2, 4
- b) 1, 3
- c) 2, 3, 4
- d) 1, 4

12. "O'zbek" atamasi ilk bor kimning qaysi asarida tilga olingan?

- a) XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida
- b) XII asrda Rashididdinning "Mo'g'ullar tarixi" asarida
- c) XI asrda M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida
- d) XV asrda Navoiyning "Muhokamat ul- lug'atayn" asarida

---

13. Yevropaliklar O'rtin - Enasoy yodgorliklari yozuvini nima deb atashgan?

- a) "manixeizm" (moniylikka oid)
- b) "elegiyalar" (qabr toshi yozuvlari)
- c) "epistolyar xatlar" (nomalar)
- d) "runik" (sirli)

14. O'zbek tili qaysi til oilasining qaysi guruhiga mansub?

- a) oltoy oilasining turkiy guruhiga
- b) hind-yevropa oilasining to'xtar guruhiga
- c) turk oilasining chig'atoy guruhiga
- d) turkiy tillar oilasining oltoy guruhiga

---

15. Til va nutqning farqi noto'g'ri izohlangan javobni belgilang.

- a) Til - mohiyat, nutq - hodisa.
- b) Til - voqelik, nutq - imkoniyat.
- c) Til voqealanmagan, nutq - voqealangan.
- d) Tilga umumiylik, nutqqa xususiylik xos.

16. Dunyodagi xalqaro tillar qaysi qatordagi javobda aks etgan?

- a) o'zbek, usmonli turk, qozoq, qirgiz, ozarbayjon, rus tillari
- b) ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy tillari
- c) o'zbek koreys, tatar, alban, arab, mo'g'ul tillari
- d) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus tillari

17. Mashhur Vatandoshimiz Abulqosim Zamaxshariyning otlar, fe'llar, bog'lovchilar, otlarning turlanishi, fe'llaming tuslanishi haqidagi besh qismdan iborat asarini aniqlang.

- a) "Sarfuh nahv"
- b) "Muqaddimatul-adab"
- c) "Al-Mufasssal"
- d) "Asosul-balog'a"

18. Turkiy tillar oilasi, qipchoq guruhiga kiruvchi tillarni aniqlang.

- a) uyg'ur, boshqird
- b) tatar, o'zbek
- c) ozarbayjon, qirg'iz
- d) boshqird, yoqut

19. O'zbek tili asosan qaysi davrdan boshlab o'quv fani sifatida maktablarda o'qitila boshlandi?

- a) XVIII asrning oxirlaridan
- b) XX asrning boshlaridan
- c) XIX asrning boshlaridan
- d) XIV asrdan

**20.** Adabiy tilning qanday shakllari bor?

- a)** og'zaki adabiy til va yozma adabiy til
- b)** faqat yozma adabiy til
- c)** mahalliy so'zlashuv tili, og'zaki adabiy til
- d)** mahalliy so'zlashuv tili va yozma adabiy til

Qanday so'zlar badiiy nutqda qo'llanib, tazod yaratish uchun xizmat qiladi?

- a)** paronimlar
- b)** sinonimlar
- c)** omonimlar
- d)** antonimlar

**2.** Antonimlikni yuzaga keltiruvchi belgilar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- a)** ma'nodagi o'zaro zidlik
- b)** A, B, C
- c)** shakliy jihatdan har xillik
- d)** ma'noviy jihatdan har xillik

**3.** Qaysi so'z turkumlarida antonim munosabat umuman yo'q?

- a)** yordamchi so'zlar, ravish, son
- b)** ot, son, sifat
- c)** son, olmosh, modal so'zlar
- d)** ravish, fe'l, olmosh

**4.**

*Uzun aytma, qisqa ayt, ko'p ma'no ber.*

Gapda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar ishtirok etgan?

- a) sinonim
- b) omonim
- c) antonim
- d) paronim

5. Zid soʻzlar qoʻllangan gapni toping.

- a) Sovuq shamol oʻqtin-oʻqtin esib, toʻqayni allaqanday vahimaga toʻldirdi.
- b) Sherali qoʻrqmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola edi.
- c) Bir noʻnoqni bir epchil eplaydi.
- d) Yolgʻonchining soʻzi rost boʻlmas.

6. *Bularning barchasi, albatta, pul bilan boʻladi. Bunday vaqtlarda yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi...*

Parcha A. Qahorning qaysi hikoyasidan olingan? Gaplar tarkibida soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra qanday turi ishtirok etgan?

- a) “Anor” hikoyasidan; paronimlar
- b) “Bemor” hikoyasidan; antonimlar
- c) “Oʻgʻri” hikoyasidan; sinonimlar
- d) “Dahshat” hikoyasidan; omonimlar

7. Qaysi javobda “doʻppisini osmonga otmoq” iborasiga zid maʼnoli soʻz keltirilgan?

- a) gʻazablanmoq
- b) hayratlanmoq
- c) xursand
- d) xafa

8. Qaysi maqolda zid maʼnoli soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishtirok etgan?

- a) Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma.
- b) Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq soʻz jonni ilitar.
- c) Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tugʻgan toparsan?
- d) Aqlsiz doʻstga kuzlar, Aqli doʻstini suyar.

9. Leksik antonimlar berilgan qatorni aniqlang.

- a) oqkoʻngil va ichi qora
- b) ishladi va ishlamadi
- c) xursand va dili siyoh
- d) yupqa va qalin

10. Frazologik antonimlarni aniqlang.



- a) beqiyos, mislsiz
- b) achchiq, shirin
- c) yerga urmoq, ko'kka ko'tarmoq
- d) katta ketmoq, katta gapirmoq

11. Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkinmi?

- a) Bir ma'noli so'zlarga antonim bo'lishi mumkin.
- b) Har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lgan so'zlar ko'p ma'noli so'z hisoblanmaydi.
- c) Ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim-ayrim so'zlarga antonim bo'lishi mumkin.
- d) Ko'p ma'noli so'z faqat bir ma'nosi bilan boshqa bir so'zga antonim bo'lishi mumkin.

12. Ot antonimlar berilgan qatorni toping.

- a) xursandlik, sevinch, quvonch, shodlik
- b) olov, suv, o't, muz
- c) yoqut, doira, devon, hovli
- d) g'alaba, zafar, foyda, daromad

13. Antonim sifatlar ishtirok etgan qatorni aniqlang.

- a) Otabekka O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi.
- b) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
- c) O'ylamay qilingan ish boshga keltirar tashvish.
- d) Adolatli podsho hech vaqt mag'lub bo'lmas.

14. Qaysi turkumlarga oid juft so'zlar asosan antonimlardan hosil bo'ladi?

- a) ravish
- b) son
- c) sifat
- d) ot

15. O'zaro antonim qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- a) -ning, -ni, -da, -dan
- b) -m, -im, -um, -ma
- c) -li, -siz, -be, -ba
- d) -gi, -qi, -ki, -chan

16. Qaysi qatorda ot antonimlar mavjud?

- a)or - nomus
- b)savol - javob
- c)o'y - xayol
- d)oq - qora

17. Muayyan soʻz oʻzaro sinonimik qatorni tashkil etgan har bir soʻz bilan alohida antonimlik hosil qila oladimi?

- a) Bir soʻz sinonimik qatordagi faqat bitta soʻz bilan antonimlik hosil qiladi, qolganlari bilan hosil qilmaydi.
- b) Oʻzaro sinonim soʻzlarga boshqa sinonimlar bilan antonimlik hosil qiladi.
- c) Bir soʻz oʻzaro sinonimik qatordagi har bir soʻz bilan alohida antonimlik hosil qila oladi.
- d) Soʻzlarning oʻzaro antonimlik hosil qilishi maʼnodagi zidlik asosida boʻlganligi uchun sinonimlikning ahamiyati yoʻq.

18. Antonimlar berilgan qatorni aniqlang.

- a) erinchoq - gʻayratli, tepsa tebranmas - epchil, shoʻx - qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan
- b) ruxsat bermoq - taqiqlamoq, savodli - savodsiz, ilik - ilk
- c) shoʻx - yuvosh, qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan, dovon - devon
- d) erimoq - muzlamoq, tez-tez, shodlik - gʻam

19.

*Visoli lazzatidin zavq topmoqligʻ erur dushvor,*

*Firoqi shiddatinda yoʻqsa jon bermaklik osondur.*

Bobur qalamiga mansub ushbu baytda soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra qaysi turi qoʻllangan?

- a) paronim soʻzlar
- b) maʼnodosh soʻzlar
- c) shakldosh soʻzlar
- d) zid soʻzlar

20. *Agar yaxshiliging seni xursand qilib, yomonliging xafa qilsa, demak, sen moʻmin ekansan.*

Ushbu gapdagi antonim soʻzlar qaysi soʻz turkum(lar)iga tegishli?

- a) feʼl
- b) ot, feʼl
- c) ot, sifat
- d) sifat, feʼl

1. Paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud gapni toping.

a) Adl teraklar qishloqning husniga husn qo'shadi.

b) Asl maqsadingizni ayting.

c) Amringizga muvofiq keldim.

d) Yaxshiga yondash, yomondan qoch.

2. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

a) obro'-obro'y

b) a'yon-ayon

c) a'zo-azo

d) kabutar-kaptar

3.

*Qishloqning husniga husn qo'shgan qaddi raso teraklar tik qomatlarini mag'rur ko'rsatib turadi.*

Ushbu gapda shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar ishtirok etgan?

a) ma'nodosh

b) paronim

c) shakldosh

d) ma'nodosh va shakldosh so'zlar

4. Paronim juftiga ega bo'lgan, fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'zni aniqlang.

a) sanat

b) o'tkaz

c) tuzsiz

d) unim

5. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

a) battar - badtar

b) asta - ohista

c) yuvindi - yuvundi

d) gado - gadoy

6. Qaysi javobda paronimlar berilgan?

a) jodi - jodu

b) nabira - nevara

c) algebra - aljabr

d) bema'nilik - bema'nolik

7. Qaysi qatorda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

- a) Tamburimning ovozi - yorimning sho'xchan nozi.
- b) Qancha-qancha insonlar vatanining bir qism tuprog'iga zor.
- c) Asil umring shu boyning eshigida o'tmasin deyman-da.
- d) Men aytganlarni birma-bir qayd qiling.

8. Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

a)

Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.

b) Qadr bilmas qarindoshdan, qadr qilgan yod yaxshi.

c) Har qadamda xalqob bo'lib yotgan ko'lmaklar yerga singib, ariqlardagi loyqalar tina boshladi.

d) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi

9. Qaysi qatorda yondosh o'rnida uning paronimi qo'llangan?

a) Yaxshiga yondash, yomondan qoch. (maqol)

b) Durdona dugonalariga yondashib, soy bo'yiga yo'l oldi.

c) Barcha gaplarda yondosh so'zi qo'llanishi kerak.

d) Yo'lga yondash anhor shovillab oqardi.

10. Qaysi gapda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

a) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tishi bilan kunlar isiy boshlaydi.

b) Shahrimiz nufusi uch milliondan oshdi.

c) Tushga qolmay yukimiz ot aravaga ortildi.

d) Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi.

11. Quyidagi so'zlardan qaysilarida paronimlik ot turkumi doirasida yuzaga kelgan?

1) *dars-darz;*

2) *barmoq-bormoq;*

3) *yod-yot;*

4) *sut-sud;*

5) *urish-urush;*

6) *qars-qarz;*

7) *da'vo-davo;*

8) *sof-sop;*

9) *palak-falak;*

10) sa'va-sava.

a)1, 3, 5, 10

b)2, 3, 6, 7

c)1, 4, 7, 9

d)1, 4, 9, 10

12.Paronim so'zlar qaysi javobda berilgan?

a)adab - odob

b)traktor - traktir

c)nevvara - nabira

d)paronim so'zlar berilmagan

13.Qaysi qatorda paronimlar qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

a)Ko'yilagi quyoshda tovlanib hushini yanada ochdi.

b)Suv jimirlab, ko'zni quvnatib toblanardi.

c)Yarqiraydi doim tovlanar, Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

d)Ochilov o'zini quyoshga toblab yotardi.

14.So'z qo'llash bilan bog'liq xato qaysi gapda mavjud?

a)Berilgan gaplarning barchasida so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud.

b)Berilgan gaplarda so'zlar to'g'ri qo'llangan.

c)Paxta terimi tez suratlar bilan bormoqda.

d)Ahmad Husayn raso ochiqqan ekan.

15.Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

a)adl - adil

b)ya'ni - yani

c)taqir - tahir

d)battar - badtar

16.Qaysi qatorda so'z qo'llash bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yilgan?

a)Kampir bolalarga bir qismdan mayiz ulashdi.

b)Lahm go'shtlarni ajratib oldi va rastaga terib sota boshladi.

c)Mashina dovon tepasiga ko'tarildi.

d)Bola ikki yoshligidan rovon gapira boshladi.

17.Paronim so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

a)Ahil - ahl, asil - asl, katta - kichik

b)Achchiq - shirin, amir - amr, adil - adl

c)Abadiy, mangu, abadiy - vaqtincha

d)Azim - az, abzal - afzal, asir - asr

**18.**Quyidagi soʻzlardan qaysilarining paronim jufti yoʻq?

- a) ahil, dars, adl
- b) avlod, dahriy, lanj
- c) urush, adib, azim
- d) burch, oʻqish, nufuz

**19.**

*Majlis ahlining aksariyati xursand boʻlib, Mustaf o Sodiqni olqishladilar. (Oybek)*

Ushbu gapdagi ahlining soʻzi ahil soʻziga oʻzaro qaysi jihatdan bogʻliq?

- a) ahl va ahil soʻzlari bir soʻzning ikki xil yozilishi
- b) ahl va ahil soʻzlari oʻzaro paronim soʻzlar
- c) ahl va ahil soʻzlari oʻzaro maʼnodosh soʻzlar i
- d) ahl va ahil soʻzlari oʻzaro shakldosh soʻzlar

**20.**Orfoepiya qoidalariga rioya qilmaslik natijasida qanday birliklar vujudga keladi?

- a) sinonimlar
- b) paronimlar
- c) omonimlar
- d) antonimlar

**1.**Xalq shevalari adabiy tildan qaysi jihatlari bilan farq qilishi mumkin?

- a) fonetik, leksik va grammatik jihatdan
- b) fonetik jihatdan
- c) leksik jihatdan
- d) grammatik jihatdan

**2.**Hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun qaysi lahjaga kiradigan shevalar asos qilib olingan?

- a) qipchoq, qarluq va oʻgʻuz lahjalari
- b) qipchoq lahjasi
- c) qarluq lahjasi
- d) oʻgʻuz lahjasi

**3.**Notoʻgʻri hukmni belgilang.

- a) Chuvash tili turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga mansub.
- b) Qozoq tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub.
- c) Tatar tili turkiy tillar oilasining qipchoq guruhiga mansub.

d) Turkman tili turkiy tillar oilasining og'uz guruhiga mansub.  
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaysi shevalar asos qilib olingan?

a) Farg'ona - Toshkent

b) Andijon - Shahrixon

c) Toshkent - Guliston

d) Qarshi – Shahrisabz

5. Umumxalq ishlatadigan so'zlar qatorini toping.

a) fonendoskop, pediatr, veterinar, terapevt

b) iskana, randa, poytesha, pona, parma, payraha

c) ko'z, qo'l, radio, gazeta, yaxshi, yomon, kel, tur

d) yostiq, bolish, taka, ko'chik, jastiq, lo'la

6. Shevada qo'llanadigan **inak**, **uy** so'zlari adabiy tilda qanday ma'no anglatadi?

a) sigir

b) tom, hovli

c) beshik, belanchak

d) xonadon, uy-joy

7. O'zbek adabiy tilining boyishida shevalar qanday manba hisoblanadi?

a) tashqi manba

b) shevalar adabiy til uchun manba bo'la olmaydi.

c) ichki manba

d)

shevalar adabiy tilning emas, balki o'zbek milliy tilining ichki manbai hisoblanadi.

8. Quyidagi tillardan qaysi biri turkiy tillar oilasining qorluq guruhiga mansub?

a) qoraqalpoq

b) qozoq

c) tatar

d) uyg'ur

9.

**Churak (non)**, **qarinja (chumoli)**, **gashir (sabzi)** so'zlari quyidagi so'z guruhlarining qaysi biriga mansub?

a) kasb-hunarga oid so'zlar

**b)**shevaga xos soʻzlar

**c)**eskirgan soʻzlar

**d)**tarixiy soʻzlar

**10.**Maʼlum hududdagina ishlatilib, faqat shu yerda yashovchi kishilarga tushunarli boʻlgan soʻzlar qanday nomlanadi?

**a)**shevaga xos soʻzlar

**b)**atamalar

**c)**paronimlar

**d)**umumxalq ishlatadigan soʻzlar

**11.**Shevaga xos soʻzlar qaysi qatorda berilgan?

**a)**maktab, suv, tosh

**b)**men, sen, biz

**c)**moma, mayak, oʻjak

**d)**yaxshi, yomon, sariq

**12.**Hayotimizda adabiy tilning mavqeyi, taʼsiri kuchayib borgan sari sheva soʻzlarining qoʻllanish doirasi qanday boʻladi?

**a)**sheva soʻzlarining qoʻllanish doirasi zaiflashadi yoki yoʻqolib boradi

**b)**sheva soʻzlarining adabiy tilga oʻzlashishi kuchayadi

**c)**sheva soʻzlarining qoʻllanish doirasi kengayadi

**d)**sheva soʻzlarining qoʻllanishi har doimgi holatini saqlab qoladi

**13.**Xalq shevalarining qanday shakli mavjud?

**a)**ogʻzaki va yozma shakli

**b)**faqat adabiy til shakli

**c)**faqat yozma shakli

**d)**faqat ogʻzaki shakli

**14.**Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani anglatadi?

**a)**maʼlum shevaning kichik bir qismi

**b)**sheva atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi

**c)**bir-biriga yaqin boʻlgan shevalar yigʻindisi

**d)**xalq tilining maʼlum bir meʼyorlarga keltirilgan shakli

**15.**

Koʻpincha soʻz oxiridagi “**g**” tovushi oʻrnida “**v**” aytilishi qaysi lahjada soʻzlashuvchilar nutqiga xos?

**a)**oʻgʻuz lahjasida soʻzlashuvchilarga

**b)**qarluq lahjasida soʻzlashuvchilarga



- c)qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilarga
- d)shahar shevalarida so‘zlashuvchilarga

16.O‘zbek adabiy tili qaysi jihatdan Toshkent shahar shevasiga asoslanadi?

- a)sintaktik
- b)fonetik
- c)morfologik
- d)leksik

1.Eskirgan so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.

- a)charxchilik, misgarlik, sarrojlik
- b)sahhoflik, bazzozlik, sarroflik
- c)mahsido‘zlik, etikdo‘zlik, nosvoy
- d)chinnifurushlik, attorlik, namat

2.Eski o‘zbek tilida qo‘llangan **ochun, osig‘** so‘zlarining sinonimi qaysi qatorda berilgan?

- a)ochiq, afsus
- b)yashirin, foyda
- c)dunyo, foyda
- d)ochiq, osilgan

3.

Eski o‘zbek adabiy tilidagi **“pasha”** so‘zining ma‘nosini aniqlang.

- a)go‘zal latofatli
- b)ayon, ravshan
- c)kasb, hunar
- d)sog‘lomlik

4.Tarixiy so‘z ishtirok etgan gapni ko‘rsating.

- a)Anvar bugungi noma va arizalarni yig‘ishtirib udaychiga topshirdi.
- b)Davraning to‘rida akobirlar o‘tirishar edi.
- c)U kunlarda alg‘ov bilan yer haydalmasa, kun kechirib bo‘lmas edi.
- d)Er Hubbiga borib astoydil sig‘inib, keksa chinorlarga alam bog‘ladi, bo‘lmadi.

5.Eskirib qolgan so‘zlar qatorini ko‘rsating.

- a)paranji, charx, chig‘irliq
- b)g‘or, o‘ra, chuqurlik

c)qit'a, charx, chig'iriq

d)qadim, viloyat, muhr

6.Qadimgi turkiy tilda qo'llangan **art** so'zining ma'nosi qaysi javobda keltirilgan?

a)toza, musaffo

b)ism, nom

c)tepa, dovon

d)urug', zot

7.

Eski o'zbek tiliga xos **o'ko'sh, talim** so'zlarining ma'nosini aniqlang.

a)o'ko'sh - nihoyatda, talim - kam

b)o'ko'sh - ko'p, talim - bir qancha

c)oqto'sh - o'qish, talim - ta'lim

d)o'ko'sh - maktab, talim - bilim

8.Quyidagi sinonimik qatordagi so'zlarning qaysi biri eskirgan?

a)samo

b)falak

c)gardun

d)ko'k

9.O'zi *guldan o'g'lonlarin saylab berib,*

*Nomlarini ro'yxatlarga joylab berib,*

*Cho'lponlarin o'zi itday boylab berib,*

*Izlaridan o'zi giryon yurt edi bu. (S. Sayyid)*

She'riy parchada qo'llangan **giryon** so'zi qanday ma'noni anglatadi?

a)xavotirlanuvchi

b)yo'l qarovchi

c)parishon boquvchi

d)yig'lab turuvchi

10.Qaysi qatorda arxaik so'zlarga misollar berilgan?

a)talim, o'kush, budun

b)ellikboshi, mingboshi, parvonachi

c)batsiq, o'z. gavora

d)elig, ponsodboshi, amir

11.Sinonim so'zlar qatoridan nisbatan eskirganini belgilang.

- a) muzikachi
- b) mashshoq
- c) cholg'uchi
- d) sozanda

12.

*Bo'zchi belbog'ga yolchimas, kulol mo'ndiga.*

Ushbu maqoldagi **mo'ndi** so'zi ishlatilish davriga ko'ra qanday so'zlar deyiladi?

- a) tasviriy ifodalar
- b) eskirib qolgan so'zlar
- c) yangi so'zlar
- d) shevaga xos so'zlar

13. *"Devonu lug'atit turk" da sayrar sanduloch (X. Davron).*

Berilgan misradagi **sanduloch** so'zi qanday so'z?

- a) arxaik so'z
- b) badiiy so'z
- c) tarixiy so'z
- d) ramziy so'z

14. O'tmishda qo'llanilgan **"ko'ch"** so'zi hozirgi kunda qaysi ma'noda ishlatiladi?

- a) mard, botir, erkin
- b) jon, vujud
- c) dovon, tepa
- d) urug', zot

15. **Ulus, bitik, dudoq** kabi so'zlar qaysi qatorga tegishli?

- a) kasb-hunarga oid so'zlar
- b) shevalarga xos so'zlar
- c) umumxalq ishlatadigan so'zlar
- d) arxaizmlar

16.

Eski turkiy tildagi **"art"** so'zi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) san'at
- b) tepa, dovon
- c) urug' zot
- d) ko'p, cheksiz

17. Qaysi qatorda eskirgan so'zlar berilgan?

- a)choriq, jarchi, yasovul
- b)g'or, o'ra, chuqurlik
- c)qadim, viloyat, muhr
- d)qit'a, charx, chig'iriy

Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi?

- a)romandan, katta
- b)mardlarcha, oydek
- c)ba'zan, qanday
- d)bo'lma (fe'l) , yangi (ravish)

2.Egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz bermaydigan ko'p bo'g'inli so'zlar qatorini belgilang.

- a)idrok, xalq
- b)quloq, taroq
- c)ishtirok, zavq
- d)ittifoq, huquq

3.Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- a)polvon, mehnat, najot
- b)albatta, afsuski, fonetika
- c)radio, kofe, traktor
- d)mukofot, zimiston, vatandosh

4.Bo'g'in ko'chirish haqida aytilgan qaysi qoida noto'g'ri?

- a)Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chiriladi.
- b)O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi.
- c)O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi.
- d)v. b. (va boshqalar), sh. k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

5.Olma, ko'zlar kabi shakldosh (omonim) so'zlarning ma'nolarini qaysi vositalar orqali farqlash mumkin?

- a)hamma javob to'g'ri
- b)so'z urg'usi orqali
- c)grammatik qo'shimchalarni qo'shish orqali
- d)gapdagi boshqa so'zlar bilan bog'lash orqali

**6.**Yopiq bo'g'inlar qatorini aniqlang.

- a)yu-bor, ham-dam, ol-ma
- b)qu-loq, so-ya, jang
- c)gul-li, so-at, pesh-voz
- d)os-mon, mak-tab, tok-zor

**7.**Qaysi qatordagi so'zlarning urg'usi ko'chsa, so'z ma'nosida o'zgarish ro'y beradi?

- a)hovli, zavqli, shaharga
- b)bahor, atlas, yaxshi
- c)ko'llar, yangi, bog'lar
- d)oshiq, surma, mudir

**8.**O'zbek tilida urg'uning qaysi turi leksik ma'no hosil qiladi?

- a)mantiqiy urg'u
- b)ritmik urg'u
- c)so'z urg'usi
- d)gap urg'usi

**9.**Qaysi qatorda so'zlar urg'usi noto'g'ri qo'yilgan?

- a)tangens, albatta, afsuski
- b)yangra, yasha, yashna
- c)Barcha javoblarda urg'u belgisi to'g'ri qo'yilgan.
- d)kelmadi, qorday, mardlarcha

**10.**Qaysi qatordagi so'zlarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushmagan?

- a)qulupnay, qo'g'irchoq, hujayra
- b)nafosat, odamzod, madaniyat
- c)iltimos, kelajak, darvoza
- d)hamma, texnika, hamisha

**11.**Bo'g'inning amaliy ahamiyati nimalardan iborat?

- a)She'riy misralarda bo'g'inlar sonining teng bo'lishi e'tiborga olinadi.
- b)Barcha javoblat to'g'ri
- c)Birinchi sinf o'quvchilarini o'qish va yozishga o'rgatish ham bo'g'inga asoslanadi.
- d)Yozuvda bir satrga sig'may qolgan so'z keyingi yo'lga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

**12.**

*Shovulladi tun bo‘yi shamol,*

*Qaldiroqlar ko‘chdi larzakor.*

*Shivirlading yonimda xushhol:*

*Yana keldi, do‘stginam, bahor”. (A. Oripov)*

Ushbu parchada lab undoshlari bilan boshlanuvchi bo‘g‘inlar sonini aniqlang.

a)7

b)8

c)5

d)6

13. Yopiq bo‘g‘inlaridan biri faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so‘zni belgilang.

a)kitob

b)ko‘cha

c)sunbul

d)paxta

14. Yangi, hozir so‘zlarida urg‘u oxirgi bo‘g‘inga tushganida qanday ma‘no anglashiladi?

a) yangi (u yangi ketdi), hozir (hozir u shu yerda edi)

b) yangi (u yangi ketdi), hozir (davrada hozir bo‘ldi)

c) yangi (yangi kitob), hozir (davrada hozir bo‘ldi)

d) ma‘nolar urg‘uga bog‘liq emas

15. Qaysi gap tarkibida mantiqiy urg‘u vozda so‘ziga tushgan?

a) Biz Xumsonga dam olish uchun yozda boramiz.

b) Biz yozda Xumsonga dam olish uchun boramiz.

c) Yozda biz Xumsonga dam olish uchun boramiz.

d) Xumsonga biz yozda dam olish uchun boramiz.

16.

*Astronomiyami?* Ushbu so‘zda urg‘u qaysi bo‘g‘inga tushadi?

a) ikkinchi bo‘g‘inga

b) uchinchi bo‘g‘inga

c) to‘rtinchi bo‘g‘inga

d) birinchi bo‘g‘inga

17. Urg‘u ma‘no farqlash vazifasini bajargan so‘zlarni belgilang.

1) yangi; 2) toza; 3) uchuvchi; 4) qurilma; 5) moslama; 6) gullar

a)1, 2, 5, 6

b)Barcha soʻzlarda urgʻu maʼno farqlash vazifasini bajaradi.

c)1, 2, 3, 4, 5

d)1, 3, 5, 6

18.Qaysi qatordagi soʻzlar urgʻusi aksar hollarda birinchi boʻgʻinda boʻladi?

a)ilgich, luqma, ildiz

b)madad, maket, malax

c)zoʻrgʻa, issiq, proza

d)navbat, moʻgʻul, nasha

19.Soʻz urgʻusi olma, gullar soʻzlarining birinchi boʻgʻiniga tushsa qanday maʼno anglashiladi?

a)olma - boʻlishsizlik (feʼl) ; gullar - koʻp gullar (ot)

b)olma - meva (ot); gullar - gullashi mumkin (feʼl)

c)olma - meva (ot); gullar - koʻp gullar (ot)

d)Ushbu soʻzlarda urgʻu maʼno farqlashga xizmat qilmaydi.

20.Berilgan soʻzlarning qaysi biri tarkibida ochiq boʻgʻin mavjud?

a)sanʼatkorlik

b)otlantirmoq

c)tasdiqlamoq

d)albomning

21.Faqat ochiq boʻgʻinli soʻzlar qatorini belgilang.

a)i-jod, iz-za, ru-bob

b)a-ra-va, a-shu-la, il-ga-ri

c)i-lo-va, o-lim, an-di-sha

d)gʻoʻ-za, ba-ra-ka, i-bo-ra

22.Qaysi qatorda boʻgʻin koʻchirish qoidasi buzilgan?

a)si-ngil

b)ing-liz

c)koʻ-ngil

d)men-ga

23.

Quyida berilgan gapda nechta ochiq boʻgʻin borligini aniqlang. *Goʻzallik tuygʻusini singdirmay turib, barkamol insonni voyaga yetkazish mumkin emas.*

a)12 ta

- b)10ta**
  - c)9 ta**
  - d)11 ta**
- 24.**

Quyidagi gaplarning qaysi birida men bo'lagi mantiq urg'usi bilan qo'llangan?

- a)**  
Men bugun qiziq voqealarni ko'rdim.
- b)**  
Bugun qiziq voqealarni men ko'rdim.
- c)**  
Bugun men qiziq voqealarni ko'rdim.
- d)**  
Qiziq voqealarni men bugun ko'rdim.

**25.**Qaysi maqoldagi barcha so'zlarning asosi bir bo'g'inli so'zlardan iborat?

- a)**Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.
- b)**Aqlsiz do'stga kular, Aqlli do'stini suyar.
- c)**Nomardga yalinma, Bir baloga chalinma
- d)**Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?

**26.**Qaysi gapda otlashgan so'zlar tarkibida ochiq bo'g'in uchramaydi?

- a)**Benomusga kunda to'y.
- b)**Kattalar hurmatda, kichiklar xizmatda.
- c)**Bermasning oshi pishmas.
- d)**Uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarni kutib olmoqdamiz.

**27.**Faqat ochiq bo'g'indan iborat bo'lgan so'zlar qatorini aniqlang.

- a)**arra, fazo, quyosh
- b)**mana, ko'rpa, semiz
- c)**mazali, go'yo, keladi
- d)**nozantin, azamat, ota

**28.**Urg'uni ko'chirish natijasida yangi ma'no anglatuvchi so'zlar qatorini aniqlang.

- a)**ishlar, hozir, qo'llar
- b)**odam, qadr, yigitcha



- c) bola, fasl, mehr
- d) muhim, ahil, chog'lar

29. Qaysi so'zda urg'u oxirgi bo'g'inga tushadi?

- a) kelajak
- b) shamolday
- c) o'qiymiz
- d) o'quvchiman

30. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan so'zlarni belgilang.

1) *tortma*; 2) *akademik*; 3) *o'quvchimiz*; 4) *tok*; 5) *etik*; 6) *ko'zlar*; 7) *changi*; 8) *tort*.

- a) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8
- b) 1, 2, 3, 5, 6, 7
- c) 1, 2, 3, 6, 7

d) Barcha so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaradi.

1. Qaysi jumlada gap urg'usi o'qituvchimiz so'ziga tushgan?

- a) Muzeyga bizni dam olish kuni o'qituvchimiz olib boradi.
- b) Bizni o'qituvchimiz dam olish kuni muzeyga olib boradi.
- c) Bizni dam olish kuni o'qituvchimiz muzeyga olib boradi.
- d) Dam olish kuni o'qituvchimiz bizni muzeyga olib boradi.

2. Qaysi javobda urg'uning o'rni o'zgartirilganda so'z ma'nosiga ta'sir qiladigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?

1) *so'zlar*; 2) *tonna*; 3) *sunna*; 4) *atlas*; 5) *doim*; 6) *mexanik*; 7) *fizik*; 8) *olma*

- a) 1, 2, 6, 7
- b) 2, 4, 6, 7, 8
- c) 1, 3, 4, 6, 7, 8
- d) 1, 3, 5, 6, 7

3. Qaysi gapda ko'plik qo'shimchasi urg'u olmaydi?

- a) Berilgan gaplarning barchasida urg'u -lar qo'shimchasiga tushadi.
- b) Berilgan gaplarning barchasida -lar qo'shimchasi urg'usiz hisoblanadi.
- c) Bo'taloqqinalar har qancha ildam yursa ham onasiga yetolmas edi.
- d) Musobaqada 10-12 yoshdagi bolalargina ishtirok etishi mumkin.

4.

**Monitoringmi?** soʻzida urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?

- a) ikkinchi boʻgʻinga
- b) uchinchi boʻgʻinga
- c) birinchi boʻgʻinga
- d) toʻrtinchi boʻgʻinga

5. Transport soʻzidagi ikkinchi boʻgʻin necha unli va undoshdan tuzilgan?

- a) bir unli va besh undoshdan
- b) bir unli va, ikki undoshdan
- c) bir unli va toʻrt undoshdan
- d) bir unli va uch undoshdan

6. Urgʻu soʻzning ikkinchi boʻgʻiniga tushgan qatorni belgilang.

- a) chaqiriq, oʻyinchoq, qoʻngʻiroq
- b) adolat, dabdaba, muqaddas
- c) kelajak, tomizgʻi, pushaymon
- d) afsuski, fonetika, albatta

7. Qaysi soʻzda urgʻu ikkinchi boʻgʻinga tushadi?

- a) oʻquvchimiz (bizning oʻquvchimiz)
- b) ulama (soch)
- c) sakkizta
- d) allakim

8. Qaysi qatordagi soʻzlarda urgʻu olmaydigan qoʻshimchalar mavjud?

- a) mardlarcha, ketma, olmadek
- b) burama (sifat) , atash, doʻstona
- c) yigitcha, futbolchi, archazor
- d) borma, senla, gullar

9. Qaysi qatorda soʻzlar boʻgʻinlarga toʻgʻri ajratilgan?

- a) tong-gi, ten-gi
- b) tan-glay, ton-gi
- c) de-ngiz, koʻ-ngil
- d) tang-lay, deng-iz

10. Soʻz tarkibidagi -ma qoʻshimchasiga urgʻu tushsa u qanday vazifa bajarishi mumkin?

- a) ot va feʼl yasovchi

**b)**fe'lining bo'lishsiz shaklini yasovchi

**c)**sifat yasovchi

**d)**ot yasovchi

**11.**Ishchimiz so'zida "-miz" egalik qo'shimchasi bo'lsa, urg'u qaysi bo'g'inga tushadi?

**a)**3

**b)**2 - 3 bo'g'inga

**c)**"-miz" egalik qo'shimchasi bo'lganda so'z urg'u olmaydi

**d)**1

**12.**

Qaysi so'zda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajargan?

1) yangi; 2) toza; 3) asil; 4) hisobchi; 5) moslama; 6) gullar.

**a)**1, 2, 5, 6

**b)**1, 2, 3, 4, 5

**c)**Barcha so'zlarda urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaradi.

**d)**1, 3, 5, 6

**13.**Quyida berilgan sonlarning qaysilarida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

1) bordi; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) vodorod.

**a)**2, 4, 5

**b)**1, 2, 4

**c)**3, 4

**d)**2, 5

**14.**Quyida berilgan so'zlarning qaysilarida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

1) bordi; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) vodorod.

**a)**2, 4, 5

**b)**3, 4

**c)**1, 2, 4

**d)**2, 5

**15.**Quyidagi so'zlarning qaysi biri tarkibida ochiq bo'g'in mavjud?

**a)**to'rtlikdan

**b)**ishlatmoq

**c)**biriktirmoq

**d)**otlantirmoq

16. Qaysi qatordagi soʻzlarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilsa ham, boʻgʻin miqdori oʻzgarmaydi?

- a) hovuz, ovoz, shahar
- b) yarim, boʻyin, burun
- c) toʻkin, oʻtin, xotin
- d) biqin, oyoq, quloq

17. Qaysi qatorda lab undoshlari berilgan?

- a) n, y
- b) p, v
- c) x, g
- d) h, ng

18. Qaysi qatordagi soʻzda -ma qoʻshimchasi urgʻu olmagan holatda qoʻllanmaydi?

- a) qoʻllanma
- b) yuklama
- c) qovurma
- d) koʻrsatma

19. Qaysi soʻzlarda urgʻu oxirgi boʻgʻiniga tushmagan?

- a) ruchka, odamzod, madaniyat
- b) Rahima, Mahbuba, Ozoda
- c) iltimos, kelajak, darvoza
- d) albatta, armiya, gazeta

20. Kongress soʻzi qaysi qatorda boʻgʻinlarga toʻgʻri ajratilgan?

- a) kongr-ess
- b) kon-gress
- c) kong-ress
- d) ko-ngress

21. Qaysi qatordagi oʻzlashma soʻzlarning oxirgi boʻgʻinida kelgan oʻ urgʻusiz unli hisoblanadi?

- a) irrigator, rektor
- b) vodoprovod, konduktor
- c) generator, vodorod
- d) motor, doktor

22.

**Gapirmasinmi?** Ushbu soʻzda urgʻu qaysi boʻgʻinga tushadi?

- a) ikkinchi boʻgʻinga

- b)**uchinchi bo'g'inga
- c)**to'rtinchi bo'g'inga
- d)**beshinchi bo'g'inga

**23.**Ayrim ikki bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda. ularning so'nggi bo'g'inidagi qaysi unli tovush tushib qoladi va shunday yoziladi?

- a)**a, o, i, u, o'
- b)**o, i, u
- c)**i, u
- d)**a, i, u

**24.**

Urg'u so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushgan qatorni belgilang.

- a)**avtobus, fonetika, teatr
- b)**chaqiriq, o'yinchoq, qo'ng'iroq
- c)**kelajak, tomizg'i pushaymon
- d)**adolat, dabdaba, muqaddas

**25.**

*Oh ursa, olamni buzar dovushi,*

*To'qson molning terisidan kovushi. ("Alpomish"dan)*

Parchada qo'llangan badiiy san'atni aniqlang; matndagi ochiq bo'g'inlar sonini toping.

- a)**mubolag'a; 13 ta
- b)**jonlashtirish; 12 ta
- c)**qofiya; 10 ta
- d)**o'xshatish; 11 ta

**26.**Qaysi javobda urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar to'g'ri ko'rsatilgan?

*1) vodorod; 2) hamma; 3) daftar; 4) gulday; 5) bordi.*

- a)**2, 4, 5
- b)**1, 2, 4
- c)**2, 5
- d)**3, 4

**27.**Qaysi qatordagi so'zda ochiq bo'g'in qo'llangan?

- a)**vazminlik
- b)**barzangi
- c)**kamqatnov

d)bellashmoq

**28.Quyidagi soʻzlarning qaysilari urgʻu tushishi oʻrniga koʻra maʼnosi farqlanadi?**

1) *suzma*; 2) *bog lar*; 3) *juda*; 4) *hozir*; 5) *etik*; 6) *fonetik*; 7) *yangi*

a)1, 4, 5, 6, 7

b)1, 2, 3, 4, 5

c)1, 2, 4, 5, 6, 7

d)1, 2, 4, 5, 7

**29.Qaysi qatordagi gapda mantiqiy urgʻu doʻstimni soʻziga tushgan?**

a)Doʻstimni men kecha majlisda koʻrib qoldim.

b)Kecha men doʻstimni majlisda koʻrib qoldim.

c)Kecha men majlisda doʻstimni koʻrib qoldim.

d)Majlisda doʻstimni kecha men koʻrib qoldim.

**30.-gina qoʻshimchasi urgʻu olmagan gapni toping.**

a)Zumradgina kimsasiz oʻrmonda qoʻrqqanidan qaltiray boshladi.

b)Berilgan barcha gaplarda -gina urgʻuli qoʻshimcha.

c)Oyoqqinang ogʻridimi bolam?

d)Yakshanba kunlarigina Mehri buvisinikiga borib turardi.

**1.Soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmui ...**

a)fonetik qoidalar deyiladi

b)orfoepiya qoidalari deyiladi

c)grammatik qoidalar deyiladi

d)orfografiya qoidalari deyiladi

**2.**

1) *tinmay*; 2) *oʻn besh*; 3) *qamchin*; 4) *qantarmoq*; 5) *manmanlik*;

6) *sunbul*.

**Berilgan qaysi soʻzlarda n harfi m tarzida talaffuz qilinadi?**

a)3, 5, 6

b)2, 4, 6

c)1, 2, 5, 6

d)1, 3, 4, 5

**3.Adabiy talaffuzning umumiy meʼyoridan chekinish boʻlgan soʻzlar qatorini aniqlang.**

a)boʻsa, kesa, boʻgan, kegan, qogan, opti, qopti

**b)**pas, go'sh, xursan, Samarqand, dart, balant, bant  
**c)**ushta, usso'm, besso'm, yussiz, qushdi, yeshdi, issiz  
**d)**oshshi, ishshi, yuzzi, qorri, otta, aqqa, boqqa

4. Ikki o'xshash tovush bir so'zda kelganda, ulardan birining noo'xshash tovushga almashinishi qaysi qatordagi so'z talaffuzida uchraydi?

**a)**ketdi  
**b)**tuproq  
**c)**tuzsiz  
**d)**birorta

5. Berilgan qaysi so'zlarda qo'sh undosh bir undosh sifatida talaffuz qilinadi?

1) *chaqqon*; 2) *million*; 3) *metall*.

**a)**2, 3  
**b)**2  
**c)**1, 2, 3  
**d)**3

6.

Talaffuz qoidalariga ko'ra qaysi so'zda "" belgisi bo'g'ini ayirib o'qish uchun xizmat qiladi?

**a)**ma'naviy  
**b)**ta'rif  
**c)**she'r  
**d)**qal'a

7. n harfi so'z tarkibida qaysi harflardan oldin kelganda ba'zan m tarzida talaffuz qilinadi?

**a)**b, m  
**b)**v, p  
**c)**k, sh  
**d)**f, t

8. Qaysi qatordagi so'zlarda ikki undosh tovush o'rtasida unli tovush orttirilib talaffuz qilinadi?

**a)**sport, mehr  
**b)**do'st, xursand  
**c)**stol, stul  
**d)**fikr, hukm

9. Og'zaki nutqning tovush tizimini yozma nutqda qanday berilishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi qanday nomlanadi?

a) orfoepiya

b) grafika

c) fonetika

d) orfografiya

10. So'zlar tarkibida "q" tovushi "x" tarzida talaffuz etiladigan qatorni toping.

a) maqbara, to'liq, tutqun

b) maqtanmoq, taqsimot, taqsir

c) chumchuq, qisqa, to'qmoq

d) chiroq, qaymoq, qirg'oq

11.

"" belgisi orqali undoshning unidan ajratib aytilishi qaysi so'zlarda uchraydi?

a) a'lo, ta'na

b) san'at, fe'l

c) qit'a, jur'at

d) ma'vo, sa'va

12. Qaysi qatordagi sozlarda "o" unlisi "a" singari talaffuz qilinadi?

a) savol, bahor, zamon

b) dekoratsiya, omonim, monitoring

c) dekoratsiya, boks, noyabr

d) okulist, tonna, tort

13.

Og'zaki nutqda qaysi so'z tarkibidagi portlovchi tovush ba'zan sirg'aluvchi tovush tarzida talaffuz qilinadi?

a) tuzsiz

b) maktab

c) to'qson

d) xohish

14. Imloda tor va keng unli ketma- ket kelgan, tor unli talaffuz qilinmaydigan so'zlar qatorini toping.

a) muammo, tabiiy

b) muovin, muallim

c) muattar, taomil



**d)saodat, maorif**

**15.**Qaysi qatordagi soʻzlar talaffuzida tovushga nisbatan harf koʻpligini aniqlang.

**a)doʻst, goʻsht, dastyor**

**b)yurist, xursand, metr**

**c)**

qiynalib, traktor, daraxt

**d)**

gʻisht, shirin, farzand

**16.**Ogʻzaki nutqning tovush tizimini tilshunoslikning qaysi boʻlimi oʻrganadi?

**a)orfografiya**

**b)fonetika**

**c)orfoepiya**

**d)grafika**

**17.**Ogʻzaki nutqning qonun va qoidalarini tilshunoslikning qaysi boʻlimi oʻrganadi?

**a)orfografiya**

**b)orfoepiya**

**c)morfologiya**

**d)fonetika**

**18.**Quyida berilgan gaplarning qaysisida ohang oʻzgarishi orqali farqli fikr hosil qilish mumkin?

**a)Gulchehra moʻysafidga nima javob qilishni bilmay, oʻzini tramvayga otdi.**

**b)- Nima boʻldi, qizim, nega yigʻlayapsan?**

**c)Togʻ qushlarining sayrashi qoʻylarning maʼragan ovozloriga joʻr boʻlmoqda.**

**d)Haligi sumka koʻtargan qizini chaqirdi.**

**1.**Quyidagi gapda qaratqich kelishigidagi soʻz qanday maʼno anglatyapti?

*Jahonning shodligi yigʻilsa butun ...*

**a)shaxs**

**b)butundan qism**

**c)toʻdadan boʻlak**

**d)tur**

2. Tugʻilgan yurtini Quz Oʻrdu deb eslatgan turkigoʻy adib nomini belgilang

- a) Durbek
- b) Sayfi Saroyi
- c) Yusuf Xos Hojib
- d) Haydar Xorazmiy

3. Tuslanish qaysi soʻz turkumiga xos?

- a) ravish
- b) feʼl
- c) son
- d) yordamchi soʻzlar

4.

Qaysi qoʻshma soʻzning ikkala qismi ham bir xil soʻz turkumidan hosil boʻlgan?

1) *togʻolcha*; 2) *sheryurak*; 3) *sizbop*; 4) *sovuqmijoz*; 5) *muzyorar*;  
6) *ilonquyruq*.

- a) 1, 2, 4, 5
- b) 1, 2, 6
- c) 1, 4, 6
- d) 2, 3, 5

5. Birlik sonda predmetlar toʻdasini anglatadigan otlar qatorini toping.

- a) qush, olma, shahar
- b) koʻchat, ishchi, universitet
- c) terak, yaproq, avtobus
- d) xalq, armiya, poda

6. Qaysi qatordagi soʻzlar faqat ot turkumiga mansub?

- a) uchirma, kulma, bogʻlama
- b) gazlama, childirma, koʻrsatma
- c) yasama, qaynatma, toʻqima
- d) kelma, oʻqima, tugma

7. Juft-juft matnlar va juft-juft naqarotlardan tashkil topgan xalq qoʻshigʻi nomini belgilang.

- a) "Maydagur"
- b) "Boychechak"
- c) "Chittigul"

d)“Boshginam og‘riydi”

8.Qaysi qatordagi hukm noto‘g‘ri?

a)Ot olmosh bilan birika olmaydi.

b)Ot sifat bilan birika oladi.

c)Ot son bilan birika oladi.

d)Ot fe‘l bilan birika oladi.

9.Tub otlar berilgan qatorni toping.

a)g‘azalxonlar, ijodkorlik, qo‘lqop

b)

qalpoqcha, do‘stlarimizga, zavqini

c)qassob, zargarlik, quroldosh

d)saroydagi, ijodkorlar, sartarosh

10.Qoidaga ko‘ra ot turkumiga oid so‘zlarda kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalari qanday tartibda joylashadi?

a)ot + kelishik + son + egalik

b)ot + son + kelishik + egalik

c)son + egalik + ot + kelishik

d)

ot + son + egalik + kelishik

11.Tug‘ilgan kun bilan bog‘liq ismni toping.

a)Umid

b)Odina

c)O‘roqboy

d)Anor

12.Mustaqil so‘z turkumlaridan qaysi birlariga yasalish xususiyati yo‘q?

a)sifat, ravish

b)ravish, olmosh

c)son, olmosh

d)son, ravish

13.Quyidagi she‘riy misralard nechta ot so‘z turkumiga mansub so‘z qatnashgan?

*Yashash, bu - orzular qanotin kermoq,*

*Yashash, bu - muhabbat gullarni termog,*

*Yashash, bu - umrning gulgun damlari,*

*El uchun yashamoq, el uchun bermoq.*

a) 11 ta

b) 10 ta

c) 9 ta

d) 8 ta

14. Quyida ko'rsatilgan qaysi so'z turkumlariga oid so'zlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin?

1) *olmosh*; 2) *son*; 3) *fe'l*; 4) *ravish*; 5) *undov so'zlar*; 6) *taqlid so'zlar*.

a) 2, 3, 4, 5, 6

b) 1, 2, 3, 4, 6

c) 3, 6

d) 1, 2, 3, 4, 5, 6

15. Otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

a) kim? nima?

b) kim? nima? qaysi?

c) kim? nima? qayer?

d) kim? nima? qayer? qaysi?

16. Ot so'z turkumi qatnashmagan gapni toping.

a) Nima qilsak tinch va rohatda umr ko'rami

b) Hech qayerda, hech kimga, umuman gapirmang, jim bo'ling.

c) Ortiqchasi zarar keltiradi

d) Yomon so'z tinglovchining ko'nglini xira qiladi.

17. Shaxs otlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1) *Zuhra*; 2) *Amper*; 3) *Hasan*; 4) *rentgen*; 5) *murabbiy*; 6) *Asal*; 7) *muxlis*; 8) *Anor*.

a) 5, 7

b) 1, 3

c) barchasi shaxs otlari hisoblanadi

d) 1, 2, 3, 6, 8

18.

Quyida berilgan she'rda nechta ot turkumiga mansub so'z qo'llangan?

*O'zbekiston - go'zal diyori,*

*Saodatga mehnati yori,*

*O'zgacha bir hikmati bor,*

*Halollikga aytar alyor.*

a)8 ta

b)5 ta

c)7 ta

d)6 ta

19.Qaysi qatorda **oy** so‘zi ot turkumiga xos sintaktik vazifani bajargan?

a)Oy borib, omon kel o‘g‘lim!

b)Oy osmon dengizida suzib bormoqda.

c)barcha javoblar noto‘g‘ri

d)Uydan oy yuzli qiz chiqib keldi.

20.Otga xos eng to‘g‘ri hukm qaysi qatorda berilgan?

a)To‘ldiruvchi vazifasida qo‘llanadi.

b)Hamma gap bo‘lagi vazifasida kela oladi.

c)Kesim vazifasida kela oladi.

d)Aniqllovchi vazifasida kela oladi.

21.Qaysi qatordagi so‘zlar faqat otlardan iborat?

a)so‘lg‘in, turg‘un, suvdon

b)uchqun, to‘lqin, bilimdon, qalamdon

c)yong‘in, toshqin, tuzdon, kuldon

d)tuyg‘un, keskin, qumdon, xumdon

22.Juft-juft matnlar va juft-juft naqarotlardan tashkil topgan xalq qo‘shig‘i nomini belgilang.

a)“Boshginam og‘riydi”

b)“Boychechak”

c)“Chittigul”

d)“Maydagur”

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti na‘munasi bo‘lgan “Bozor” romani muallifi kim?

a)Salomat Vafo

b)Omon Muxtor

c)Xurshid Do‘stmuhammad

d)Luqmon Bo‘rixon

2.

*Na ijod, na dovrug, istak - najotim,*

*Dillarni poklayin nohaq, shubhadan.*

*Butkul sabil qolsin mening ijodim,*

*Faqat ozod bo‘lsin shu xalq, shu Vatan!*

+998994465421

Misralar muallifi kim?

- a) Usmon Azimov
- b) Usmon Nosir
- c) Rauf Parfi
- d) Mirzo Kenjabek

3.

*Qobirg'alar qabarar suyaklarim qadoqdir*

*Qaboqlarim o'q tugab bo'shab qolgan sadoqdir*

*Kuyib kuyib kul bo'lgan nafratlarim adoqdir*

*Chuchmomalar ko'k kiygan namozshomgul*

*Gul gulim hey tulugim*

*Hey tulum hey tulugim hey tulum*

Imlo qoidalariga rioya etilmay bitilgan ushbu misralar muallifi kim?

- a) Azim Suyun
- b) Rauf Parti
- c) Bahrom Ro'zimuhammad
- d) Faxriyor

4. "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob" asarlarining muallifi qaysi javobda berilgan?

- a) Nazar Eshonqul
- b) Tog'ay Murod
- c) Murod Muhammad Do'st
- d) Erkin A'zamov

5. Asarning nomi ham, bosh qahramon ismi ham ramziy ma'noda yozilgan qissa qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) "Iste'fo"
- b) "Maymun yetaklagan odam"
- c) "Oq qushlar, oppoq qushlar"
- d) "Oromkursi"

6. Tire (-) qaysi gap tarkibida ishlatilishi kerak?

- a) Men uchuvchiman.
- b) Bilim baxt belgisidir.
- c) Ishning boshi boshlangunchadir.
- d) Siz endi muhandis bo'ling.

7. Nazar Eshonqul hikoyalari qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?

- a) "Quyun", "Tobut", "Maymun yetaklagan odam", "Xaroba shahar suvrati"
- b) "Iste'fo", "Maymun yetaklagan odam", "Qora quyosh", "Oqpadar"
- c) "Chaqmoq izidan", "Tobut", "Xayrlashuv", "Javob"
- d) "G'ulomgardish", "Quyun", "Ko'k dengiz", "Chodirxayol"

8.

O'z otalarining ko'zlariga mil tortish darajasida yirtqich bo'lgan farzandlarning tubanliklari ta'sirli yo'sinda ko'rsatib berilgan dramatik asar qaysi?

- a) "Bir qadam yo'l"
- b) "Bir koshona sirlari"
- c) "Arabmuhammad Bahodirxon"
- d) "Bir kam dunyo"

Attestatsiya savollari buyicha +998994465421

9. Jahon prozasining eng ilgʻor tajribalari asosida oʻzbek adabiyotida sof milliy obrazlar yaratilgan “Qora kitob”, “Shamolni tutib boʻlmaydi” asarlarining muallifini aniqlang.

- a) Shoyim Boʻtayev
- b) Xurshid Doʻstmuhammad
- c) Salomat Vafo
- d) Nazar Eshonqul

10. Yozuvda darak, soʻroq va buyruq shaklidagi his-hayajon gaplarning qaysi biridan soʻng ikkita tinish belgisi qoʻyiladi?

- a) soʻroq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
- b) soʻroq va buyruq gaplar shaklidagi his-hayajon gaplarda
- c) darak gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
- d) buyruq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda

11. Milliy va maʼnaviy manqurtlik holati tuproq va qum ostida qolib ketgan oʻradagi odamlar ruhiyati orqali ifodalangan asar va uning muallifi qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- a) X. Sultonov, “Gʻulomgardish”
- b) N. Otaxonov, “Oq bino oqshomlari”
- c) Asqad Muxtor, “Chodirxayol”
- d) Sh. Xolmirzayev, “Qadimda boʻlgan ekan”

12.

“Silkinish orqasida uning yuzini toʻzgʻigan soch tolalari oʻrab olib, jonsoʻz bir suratga kirgizdi”. “Oʻtkan kunlar” romanidan olingan ushbu parchadagi “jonsoʻz” soʻzining maʼnosi nima?

- a) jonga rohat beruvchi
- b) jonsiz, joni yoʻq
- c) jondek yaqin soʻz
- d) jon oʻrtovchi, azob beruvchi

13. Remboning “U sarson izlardi oʻzini oʻzi” misrasi epigraf qilib olingan hikoya va uning muallifini belgilang.

- a) N. Eshonqul, “Xaroba shahar suvrati”
- b) N. Eshonqul, “Maymun yetaklagan odam”
- c) N. Otaxonov, “Oq bino oqshomlari”
- d) N. Otaxonov, “Uchinchi qavatdagi sariq deraza”

1. Muhammad Ali kimning tilidan “vatanni sevishga topingiz bardosh, “Sevaman!” deb sotib yurmang gap”, - deya xitob qiladi.

- a) vatanning tilidan
- b) Robert Byorns
- c) Amir Temur
- d) Spitamin

2. “Gumbazdagi nur” dostonidagi bosh fikr nimadan iborat?

- a) barcha javoblar toʻgʻri
- b) Oʻn ikki meʼmor fidoyiligini koʻrsatish
- c) Amir Temurning yaratuvchilik faoliyatini aks ettirish
- d) Maqbara oldidagi bola xayolidan oʻtgan voqealar bayoni

3. “Vayron boʻlgan xotira – oʻlim!” deb qaysi adib yozadi?

- a) Gʻ. Gulom
- b) Muhammadali Ahmedov
- c) Muhammad Yusuf
- d) Bobur

4. Muhammad Ali hayoti va ijodi haqida keltirilgan quyidagi maʼlumotlardan qaysi biri notoʻgʻri keltirilgan?

1. *“Spitamen”, “Mashrab”, “Boqiy dunyo” sheʼriy romanlar muallifi;*
2. *Nasrdagi birinchi yirik asari- “Sarbadorlar”;*
3. *Amir Temur mavzusini badiiy tadqiq etgan 2005- yil “Ulugʻ saltanat” romani chop etilgan;*
4. *“Abadiy sogʻinchlar” nomli roman- eposini yaratdi.*
5. *“Abadiy sogʻinchlar” nomli roman- xronikasini yaratadi.*

- a)  
2, 42,4
- b)  
1, 2, 3, 51,2,3,5
- c)  
1, 2, 51,2,5
- d)  
1, 3, 51,3,5

5.  
“Gumbazdagi nur” dostonidagi **“Asli ular mavzu men uchun, Asli ular- dildagi matlab”**

misralarida kimlar nazarda tutilyapti?

- a) Oʻn ikki meʼmorni
  - b) Amir Temur va Muhammad Sultonni
  - c) Oʻz oʻquvchilarini
  - d) Gumbazdagi nurga mehr bilan qaraydigan avlodni
6. Muhammad Ali nima sababdan “Vayron boʻlgan xotira – oʻlim!” – deb yozadi?
- a) Vatanga boʻlgan muhabbati tufayli
  - b) Milliy xotiraning yoʻqolishidan choʻchidi.
  - c) Tarixning qorongʻu sahifalariga nur bagʻishlagisi keladi.
  - d) Xotirasiz kelajak yoʻq ekanligini yana bir bor isbotlaydi.



7. Muhammad Alining quyidagi kitoblaridan qaysi biri xalqimizga o'zligini anglashda muhim bir ilmiy- ma'rifiy vosita bo'ldi?

- a) "Gumbazdagi nur"
- b) "O'z- o'zingni anglab yet"
- c) "Oshiq bo'lmay haq diydorini ko'rsa bo'lmas"
- d) "Abadiy sog'inchlar"

8. "Bitta tushunchadir uy ila Vatan!" Quyidagi so'zlar muallifini aniqlang.

- a) Muhammad Ali
- b) Muhammad Yoqub
- c) Muhammad Yusuf
- d) Amir Umarxon

9. Quyidagi adiblardan qaysi biri birinchi she'rini uchinchi sinfda o'qiyotganida yozadi?

- a) Muhammad Ali
- b) Z. M. Bobur
- c) Muhammad Yusuf
- d) Ozod Sharafiddinov

10. Kimning she'rida Samarqand ertakdan ham qadimligi tasvirlangan?

- a) Bobur
- b) Muhammad Ali
- c) Muhammad Yusuf
- d) A. Navoiy

11.

***"Qarangiz,***

***O! Fotih, jahongir!***

***Bir mahallar dunyo edi tor***

***Kichik qabr unga keng endi..."***

Yuqoridagi misralar orqali Muhammad Ali kimni xotirlamoqda?

- a) Beknazarining o'g'li
- b) A. Temurni
- c) Ulug'bekni
- d) Boburni

12. Muhmmad Alining ijodi qaysi tuyg'uni kuylashga bag'ishlangan?

- a) tabiatni
- b) muhabbatni
- c) tarixni
- d) vatan ruhiga yo'g'rilgan

13. Muhammad Ali ijodida qaysi mavzu yetakchilik qiladi?

- a) vatan mavzusi
- b) barcha javoblar to'g'ri.
- c) tarix va muhabbat mavzusi
- d) ozodlik mavzusi

14. "Men izlab topishni yaxshi ko'rardim." Bu so'zlar muallifini aniqlang.

- a) Muhammad Ali
- b) Amir Umarxon
- c) G'afur G'ulom
- d) Muhammd Yusuf

15.

"Gumbazdagi nur" dostonidagi "**Oldinda xayollar ... ortda maqbara**" misralarini qanday izohlash mumkin?

- a) inson xayol bilan yurganda qabrlarni ko'rmaydi
- b) xayol – kelajak avlod, maqbara – unutilgan o'tmish
- c) xayol kelajak ramzi, maqbara esa o'tmish
- d) faqat oldinga qarab intilish kerak, o'tmish unutiladi

16. "Bevafo dunyo!" deb yozgan adibni aniqlang?

- a) Muhammad Ali
- b) Ali Hamdam
- c) Muhammad Yusuf
- d) Usmon Nosir

17. Muhammad Alining tarjima asarlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) "Nil va Rim"
- b) "Ramayana"
- c) "Pantachapra"
- d) "Maxabharat"

18. Muhammad Alining birinchi yirik asari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) "Sarbadorlar"
- b) "Gumbazdagi nur"
- c) "Ulug' saltanat"
- d) "Abadiy sog'inchlar"

19.

***Aylanadi Sirda po'rtana,***

***Gumburlaydi Farhod darasi.***

Yuqoridagi misra kimning qalamiga mansub?

- a) Muhammad Ali
- b) Alisher Navoiy
- c) Muhammad Sulton
- d) Sh. Orif

1. Muhammad Yusufning dastlabki she'ri e'lon qilingan dan qancha vaqt o'tib uning dastlabki she'ri e'lon qilindi?

- a) 8- yil
- b) 6- yil
- c) 9- yil
- d) 5- yil

2. "Iltijo", "Ishq kemasi" she'riy to'plamlari muallifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) Erkin Vohidov
- b) M. Ali
- c) O. Sharafiddinov
- d) Muhammad Yusuf

3. Tilimizda "nekbin tuyg'ular" degan ibora qanday ma'no ifodalaydi?

- a) shukuhli, shodlik tuyg'ulari
- b) toza, pok tuyg'ular
- c) alamli tuyg'ular
- d) xudbin tuyg'ular

4. Yurtning "Yulduzini yig'latgan dostonlardan xabardormisiz" aynan shunday dostonlar haqida Muhammad Yusufning qaysi she'rida so'z boradi?

- a)“Uyqudagi qiz”
- b)“Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...”
- c)“Ishq kemasi”
- d)“Osmonimga olib ketaman”

5.

***Oy mening yelkamga o‘tirib olgan,  
Oftob g‘avg‘o solar yurgan yo‘limga.***

Ushbu misralar muallifini aniqlang.

- a)Sh. Rahmon
- b)Zulfiya
- c)Muhammad Yusuf
- d)Faxriyor

6.Muhammad Yusufning “Mehr qolur, muhabbat qolur” nomli she’ri qaysi shaklda yozilgan?

- a)murabba (to‘rtlik)
- b)muxammas (beshlik)
- c)masnaviy (ikkilik)
- d)barmoq vaznida, 8 bo‘g‘inli she’r

7.Muhammad Yusufning 1992- yilda nashr etilgan she’riy to‘plamlari qaysi qator to‘g‘ri berilgan?

- a)“Yolg‘onchi yor”, “Erka kiyik”
- b)“Osmonning oxiri”, “Qora quyosh”
- c)barcha javoblar to‘g‘ri
- d)“Bevafo ko‘p ekan”, “Erka kiyik”

8.

***Muhabbat dardidan dardman qalblarmiz,  
Kasal bo‘lsak ne tong sog‘lar o‘rtasida.***

Ushbu iste‘hzoli misra muallifini toping.

- a)Abdulla Oripov
- b)Muhammad Yusuf
- c)M. Ali
- d)Amir Xudayberdi

9.

Muhammad Yusufning dastlabki she’rlaridan namunalar qaysi gazetada e‘lon qilingan?

**a)**

“Toshkent oqshomi”

**b)**“O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”

**c)**“O‘zbek tili va adabiyoti”

**d)**“O‘zbekiston ovozi”

**10.**Tilimizda “*nekbin tuyg‘ular*” degan ibora bor. Ushbu ibora ma‘nosini aniqlang.

**a)**ichki xotirjamlik

**b)**iymonlilik

**c)**rang- barang kayfiyat

**d)**toza, pok, samimiy tuyg‘u

**11.**“Kiprigi ko‘ksiga soya solgan qiz” ta‘rifi kimning qaysi asarida uchraydi?

**a)**M. Yusufning “Uyqudagi qiz”

**b)**U. Nosirning “Nahshon” dostonida

**c)**E. Vohidovning “Uzum” she‘rida

**d)**M. Yusufning “Biz baxtli bo‘lamiz”

**12.**Muhammad Yusuf o‘zining qaysi she‘rida suvlarda Tohirning oqib ketganini va Zuhroning bag‘ri qon bo‘lib yig‘lab qolganini takidlaydi?

**a)**“Mehr qolur”

**b)**“Uyqudagi qiz”

**c)**“Osmonimga olib ketaman”

**d)**“Ishq kemasi”

**13.**1978- 1980- yillarda respublika “Kitobsevarlar” jamiyatida ishlab foliyat olib borgan adib qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

**a)**U. Azim

**b)**Muhammad Yusuf

**c)**Xurshid Davron

**d)**X. Do‘stmuhammad

**14.**

47 yil umr ko‘rgan adiblar qatorini aniqlang.

**a)**Usmon Nosir, T. Murod, Muhammad Yusuf

**b)**Sh. Rahmon, Bobur, M. Yusuf

**c)**Sh. Rahmon, Sh. Xolmirzayev, Bobur

**d)**M. Ali, M. Yusuf, Bobur

15. Ozarbayjon shoiri Samad Vurg'un "Yiqilsin mehvari olam va tubdan tor- mor o'lsin" misralari hamohang M. Yusufga tegishli bo'lgan misrani aniqlang.

a) Yonib ketsin chirsillab qalbim, Sevish kerak... yashash shart emas!

b) Qoldim kulko'rpada, To'shagim – tuproq.

c) Men olovga otarman endi Yuragimni qiyma- qiymalab...

d) barcha javoblar to'g'ri

16. M. Yusufning qaysi she'ri qahramoni, umrini ko'ngliga topshirib qo'ygan deb tasvirlanadi?

a) "Dunyo"

b) "Madina"

c) "Tilak"

d) "Surat"

17. Muhammad Yusuf 1998- yilda qanday unvon bilan mukofatlandi?

a) "O'zbekiston qahramoni"

b) "O'zbekiston xalq yozuvchisi"

c) "O'zbekiston faxriysi"

d) "O'zbekiston xalq shoiri"

18.

***Shoir shunday ko'pki, ularga yer tor,***

***Hammasi mashhur va hammasi nomdor.***

Ushbu satrlar M. Yusufning qaysi she'ridan olingan?

a)

"Madina"

b) "Mehr qolur"

c) "Vatanim"

d) "Yurtim, ado bo'lmas armonlarin bor"

19.

Suyukli yorni "*kipriklari uzun kokillaridan*", "*barcha farishtalar sening qalbingda ijarada turgan qizlar men uchun*",- deya ta'riflagan shoir nomini belgilang.

a) Muhammad Yusuf

b) Rauf Parfi

c) Abdulla Oripov

d)Shavkat Rahmon

20.

Muhammad Yusuf o'zining qaysi she'rida olislarda qolgan Usmonlar borligi va jayrondek termulguchi Cho'lponlar haqida so'z yuritadi?

a)"Osmonimga olib ketaman"

b)"Osmonning oxiri"

c)"Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor..."

d)"Iqror"

21.

Muhammad Yusuf G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida xizmat qilgan paytlarda nashriyot rahbarligi lavozimida faoliyat olib borgan shaxs nomi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

a)O'. Umarbekov

b)Abdulla Oripov

c)O'. Hoshimov

d)E. Vohidov

22.Mehr muhabbat qachon "dunyoni tor ayladi"? Shunday ekan kimlarga dunyo tor ko'rinadi?

a)ochko'z kishilarga

b)barcha javoblar to'g'ri

c)mehrdan yiroq kishilarga

d)go'zallikdan yiroq kishilarga

23.

***"Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, yov kelganda o'zini chetga olgan, jon shirinlik qilib sha'nidan kechgan, hatto do'stlarini sotgan kimsalar haqida".***

Muhammad Yusuf o'zining qaysi she'rida so'z yuritadi?

a)"Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor..."

b)"Iqror"

c)"Osmonning oxiri"

d)"Osmonimga olib ketaman"

24.

***Ko'zimning yoshini keladi ichgim,***

***Tilimni chaynagim kelar gohida.***

Misralar muallifini aniqlang.

- a)R. Parfi
- b)T. Sulaymon
- c)Muhammad Yusuf
- d)Abdulla Oripov

25.Muhammad Yusufning dostonlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a)"Osmonning oxiri", "Qora qosh"
- b)"Dunyo", "O'zbekmomo"
- c)"Uyqudagi qiz", "Erka kiyik"
- d)"Iltijo", "Ishq kemasi"

26.Muhammad Yusuf dostoni qaysi javobda berilgan?

- a)"Osmonimga olib ketaman"
- b)"Uyqudagi qiz"
- c)"Mehr qolur"
- d)"Ishq kemasi"

27.

***"Iymanib yashama xayol pinjida***

***Yoyil yayra jonim o'rtanma g'amda"***

Yuqoridagi satrlar Muhammad Yusufning qaysi she'ridan keltirilgan?

- a)"Uyqudagi qiz"
- b)"Ishq kemasi"
- c)"Osmonimga olib ketaman"
- d)"Biz baxtli bo'lamiz"

1.Mirtemir Rustavillining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonini kim bilan hamkorlikda tarjima qilgan?

- a)A. Umariy
- b)Abdulla Qahhor
- c)M. Shayzoda
- d)G'. G'ulom

2.Mirtemirning "Ona tilim" nomli she'ri O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishidan necha yil oldin yozilgan?

- a)13
- b)15



c)19

d)17

3. Dastlab bobosi qo'lida xat- savod o'rgangan, so'ngra Asfandiyor degan "no'g'oy domla"ning maktabida ta'lim olgan ijodkorni ko'rsating.

a) Mirtemir

b) Oybek

c) U. Nosir

d) A. Qahhor

4. "Kommuna" va "Bong" she'riy to'plamlari qaysi shoir qalamiga mansub?

a) R. Parfi

b) Mirtemir

c) M. Shayxzoda

d) H. Olimjon

5.

***Seni izlab keldim...***

***Sog'inganman- da.***

***Esingdami bahor beg'ubor kunduz...***

Mirtemirning qaysi she'ri yuqoridagi misralar bilan boshlanadi?

a) Pardalik

b) Suv qizi

c) Oysaraning to'yida

d) Go'zal

6. Qaysi shoirning 1926- yil yoshlar gazetasida "Tanburim tovushi" nomli ilk she'ri e'lon qilingan?

a) Mirtemir

b) Oybek

c) R. Parfi

d) H. Olimjon

7. "Ruslan va Ludmila" asari kimning qalamiga mansub?

a) N. A. Nekrasov

b) M. Y. Lermontov

c) A. S. Pushkin

d) M. Gorkiy

**8.**Qaysi shoir Mirtemirning erkalanib she'r yozishini yoqtiraman, deya ta'kidlaydi?

- a)Oybek
- b)A. Qahhor
- c)G'. G'ulom
- d)Said Ahmad

**9.**Pablo Neruda, Abay, Samad Vurg'un kabi adiblarning asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan shoirni ko'rsating.

- a)Mirtemir
- b)Abdulla Oripov
- c)E. Vohidov
- d)H. Olimjon

**10.**Mirtemir ijodidagi "Surat" asarining janrini aniqlang?

- a)lirik qissa
- b)qissa
- c)hikoya
- d)sonet

**11.**Bug'doy o'rog'ida Turkiston shahriga qarashli Iqon qishlog'ida dunyoga kelgan ijodkorni aniqlang.

- a)M. Shayzoda
- b)H. Olimjon
- c)Mertemir
- d)U. Nosir

**12.**"Paranjili ayol bilan uchrashuv" nomli maqola muallifini toping.

- a)O. Sharafiddinov
- b)Cho'lpon
- c)Mitemir
- d)Zulfiya

**13.**Qaysi ijodkor A. Umariy bilan hamkorlikda Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonini o'zbekchallashtirgan?

- a)G'. G'ulom
- b)Abdulla Oripov
- c)Mirtemir
- d)R. Parfi

**14.**

***Quyirlarda qolganimda, changga o'ralganimda,  
Ohangaron to'zonidan zangi qoralganimda...***

Ushbu misralar Mirtemirning qaysi she'rida uchraydi?

- a) Qarqaralik
- b) Betoblikda
- c) Kipriklarim
- d) Pardalik

15. Mirtemirning qaysi she'ri "Pardalik she'ri" bilan bir yilda yozilgan?

- a) Hurliqo
- b) Ona tilim
- c) Go'zal
- d) Qarqaralik

16. Qaysi ijodkor Pushkinning "Ruslan va Ludmila" asarini o'zbekchaga tarjima qilgan?

- a) P. Qodirov
- b) G'. G'ulom
- c) Mirtemir
- d) Erkin Vohidov

17. "Savdogar Kalashnikov haqida qissa" nomli asar muallifini aniqlang.

- a) M. Gorkiy
- b) M. Y. Lermontov
- c) A. S. Pushkin
- d) N. A. Nekrasov

18. 1943- 1944- yillarda opera va balet teatrida adabiy emakdosh vazifasida ishlagan shoir qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Hamza
- b) U. Nosir
- c) Oybek
- d) Mirtemir

19. "Onaginam" she'rida qaysi tuyg'u izhori berilgan?

- a) umrida onasini ko'rmagan farzand iztiroblari
- b) el xizmatida bo'lib, onadan xabar ololmayotgan o'g'il o'tinchi
- c) ona oldidagi burchni ado etolmagan farzand armoni
- d) onasini ko'rgani borolmayotgan o'g'il sog'inchi

**20.**“Patti”, “Norbuvi”, “Toshbu” sigari ayollarga bag‘ishlangan she‘rlar muallifini aniqlang.

- a)M Shayxzoda
- b)Mirtemir
- c)G‘. G‘ulom
- d)Hamza

**21.**Mirtemir NKVD xodimlari tamonidan qayerda qamoqqa olingan?

- a)Samarqand
- b)Buxoro
- c)Farg‘ona
- d)Toshkent

**22.**

“Shu kungacha o‘zini men cheklab bo‘ldim”. Mirtemirning o‘z dilidagi dard- u alamlari, orzu havaslarini to‘la bayon eta olmagan kundek ravshan bo‘lgan ushbu misra uning qaysi she‘ridan olingan?

- a)Kipriklarim
- b)Pardalik
- c)Betoblikda
- d)Ona tilim

**23.**Qaysi shoir ijodida oddiy xalq hayoti yetakchilik qiladi?

- a)Mirtemir
- b)Hamza
- c)U. Nosir
- d)Muhammad Yusuf

**24.**Cho‘lpon 1919- yil sohibjamol bir qizni tasodifan ko‘rib qolib, o‘zining qaysi she‘rini yaratgan?

- a)Hurliqo
- b)Go‘zal
- c)Yong‘in
- d)Pardalik

**25.**Mirtemirning bir necha lirik she‘rlardan tashkil topgan lirik qissasini aniqlang.

- a)Qirg‘iz she‘rlari
- b)Betoblikda

c)Qaraqalpoq dostoni

d)Surat

26.Mirtemirning she'riy to'plamlari to'g'ri berilgan qatorni toping.

a)Tanburim tovushi, Ajdar

b)Kammuna, Bong

c)Qo'zi, Suv qizi

d)Dikusho, Oysaraning to'yida

27.Xalqchil va milliy shu bilan birga she'r yozish texnikasini mukammal egallagan shoirni aniqlang.

a)Cho'lpon

b)Oybek

c)Firat

d)Mirtemir

28.“Ey sochlari to'lqini tun singari sim- siyoh” Ushbu misrada t tovushi qanday ma'no anglatadi?

a)Lirik qahramoning bo'zlayotgan holati

b)Yot kishilar nazaridek, oraga suqulib kirishi bilan lirik qahramon bo'zlashdan to'xtaydi.

c)Lirik qahramon jo'rlik qiloyotgan holati

d)Yot kishilar bo'zlashdan to'xtaydi ma'nosida

29.“Manas” Qirg'iz eposining 1- kitobini mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan shoirni aniqlang.

a)H. Olimjon

b)E. Vohidov

c)M. Shayxzoda

d)Mirtemir

30.“Farg'ona” nomli lirik doston muallifini aniqlang.

a)Oybek

b)Abdulla Oripov

c)Mirtemir

d)H. Olimjon

Qaysi adib ijodida chag'alaylar qiyqirig'i, “ufqqa berilgan savol” kabi o'xshatmalar o'chraydi?

a)U. Nosir

b)Erkin Vohidov

c)Abdulla Oripov

**d)M. Shayxzoda**

**2.M. Shayxzoda iqroriga hayotdagi buyuk nematlardan biri nima?**

**a)go‘zallik**

**b)ilm**

**c)tarbiya**

**d)she‘riyat**

**3.“Mirzo Ulug‘bek” dramasida Ulug‘bekning qiyofasi qaysi obrazlar vositasida ochib beriladi?**

**a)Mirzo Bobur**

**b)Ali Qushchi, Sakkokiy**

**c)Abbos va Abdulatif**

**d)Amir Temur**

**4.Qaysi adib ijodida quyma obrazlar, ramziylik, so‘zlardagi jarangdorlik alohida ahamiyat kasb etadi?**

**a)Oybek**

**b)G‘. G‘ulom**

**c)H. Olimjon**

**d)M. Shayxzoda**

**5.Qaysi shoir “goho yig‘i dilga tarjimon” deya ta‘kidlaydi?**

**a)E. Vohidov**

**b)H. Olimjon**

**c)Abdulla Oripov**

**d)M. Shayxzoda**

**6.Quyidagi adiblardan qaysi biri bizning yurtimizda tug‘ilib, olis Hindistonda shuhrat topdi?**

**a)Tagor**

**b)Bedil**

**c)Nazrul Islom**

**d)Javoharla‘l Neru**

**7.M. Shayxzodaning “G‘afurga xat”, “Ayriliq” she‘rlari kimlarga bag‘ishlagan?**

**a)G‘. G‘ulom, H. Olimjon**

**b)A. Qahhor, Mirtemir**

**c)G‘. G‘ulom, U. Yusupov**

**d)Yo‘ldosh Oxunboboyev, U. Yusupov**

8. "Kapitan Gastello" she'riy to'plamining muallifini aniqlang.

- a) Erkin Azamov
- b) Maqsud Shayxzoda
- c) Azim Suyun
- d) Zohir A'lam

9. Insonni e'zozlash, izzat- nafsga xolis munosabat muammolarini yoritish qaysi ijodkor ijodining yetakchi xususiyati hisoblanadi?

- a) H. Olimjon
- b) Abdulla Oripov

- c) Oybek
- d) M. Shayxzoda

10. Qaysi ijodkor Shekspir, Bayron, Maxtumquli, Tagor, Avetik, Isaakyan, Nozim Hikmat asarlarini o'zbekchallashtirgan?

- a) G'. G'ulom
- b) M. Shayxzoda
- c) Cho'lpon
- d) Oybek

11. Ota Murod "Mirzo Ulug'bek" dramasida qanday kasb egasi sifatida tasvirlanadi?

- a) kulol
- b) etikdo'z
- c) elchi
- d) dehqon

12. M. Shayxzodaning dostonlari berilgan qatorni aniqlang.

- a) "Nurmat otaning tushi"
- b) "Ahmadjonning hikmatlari"
- c) "Uchinchi o'g'il"
- d) barcha javoblar to'g'ri

13. Rus shoiri Brodskiy sazovor bo'lgan mukofot nomi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- a) Xizmat ko'rsatgan yozuvchi
- b) Xalq yozuvchisi
- c) Nobel
- d) barchasi to'g'ri

14.M. Shayxzodaning urushdan so'nggi tinch qurilish yillarini yana qaytadan nohaq qatag'on qilinganiga qaramay bunyotkorlik zavqini tarannum etuvchi asarlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a)“Oqsoqol”
- b)“Ovchi qissasi”
- c)“O'n besh yilning daftari”
- d)“Jenya”

15.“Mirzo Ulug'bek” dramasida Abdulatif necha yoshda tasvirlanadi?

- a)30 yosh
- b)40 yosh
- c)31 yosh
- d)23 yosh

16.“Chorak asr devoni”, “Dunyo boqiy” “Xiyobon” kabi she'riy to'plamlar muallifini toping.

- a)E. Vohidov
- b)Cho'lpon
- c)H. Olimjon
- d)M. Shayxzoda

17.

***G'ayrat: -Men to'xtamay jadal yurdim, der,***

***Mehnat: -Ekkanimni barvaqt terdim, der.***

***Bilim: -Mushkullarni tez yemirdim, der,***

***Uch do'stning kuchidan o'lka bahra yer.***

Ushbu misralar muallifini aniqlang.

- a)Zohir A'lam
- b)Maqsud Shayxzoda
- c)Azim Suyun
- d)Erkin Azamov

18.

***“Ma'rifatdan, hayotga muhabbatdan kam bo'lmagan darajadagi ehtiyoj sanalmog'i darkor”.***

Ushbu fikr kimga tegishli va unda nima nazarda tutilgan?

- a)Erkin Azamov, ota- onaga hurmat
- b)Azim Suyun, yigit kishining ilm- hunar o'rganishi



c)Cho'lpon, ishq- muhabbat

d)Maqsud Shayxzoda, she'riyat

19. "She'r chin go'zallik singlisi ekan" nomli she'r muallifini aniqlang.

a)Mirmuhsin

b)Mirtemir

c)M. Shayxzoda

d)U. Nosir

20.

***"Hali alifboni egallamasdan she'rlar yarata boshlaydi"***.

Ushbu jumlada qaysi adib nazarda tutilgan?

a)M. Shayxzoda

b)Abdulla Oripov

c)Jamol Kamol

d)Erkin Vohidov

21. "Ulug'bek yulduzi" kinofilmi rejissorini aniqlang.

a)G'. Toshmatov

b)Latif Fayziyev

c)A. Xudoyberdiyev

d)J. Xoliqov

22. M. Shayxzodaning qaysi she'ri inson tuyg'ularini uyg'ota olishi bilan ahamiyatli?

a)She'r chin go'zallik singlisi ekan

b)Toshkentnoma

c)Xiyobon

d)Chorak asr devoni

23.

***"Marifatni hukumatga qilib rahnamo, Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim"***.

Mirzo Ulug'bek" dramasidan olingan ushbu parcha kimning tilidan aytilgan?

a)Bek Asrlon

b)Abdurazzoq Samarqandiy

c)Ulug'bek

d)Piri Zindoniy

**24.M.** Shayxzodaning jahon adabiyoti vakillaridan kimlarning asarlarini o'zbekchalashtirdi?

- a) Bayron
- b) Gyote
- c) barcha javoblar to'g'ri
- d) Esxil

**25.** "Mirzo Ulug'bek" dramasida jami nechta davlat elchilari nomi qayt etiladi?

- a) 4
- b) 6
- c) 3
- d) 5

**26.M.** Shayxzoda o'zining qaysi she'rida she'riyatdan yiroq kishilarni tanqid qiladi?

- a) Ayriliq
- b) She'r chin go'zallik singlisi ekan
- c) Chorak asr devoni
- d) Xiyobon

**27.** Maqsud Shayxzodaning 30- yillarda chop etilgan she'riy to'plamlari berilgan qatorni aniqlang.

- a) "Kurash nechun", "Jang va qo'shiq", "Kapitan Gastello", "Ko'ngil deydi- ku..."
- b) "Kurash nechun", "Jang va qo'shiq", "Uchunchi kitob", "Jumhuriyat"
- c) "Chorak asr devoni", "Zamon torlari", "Shu'la", "Olqishlarim"
- d) "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchunchi kitob", "Jumhuriyat"

**28.** Hali savodi chiqmasdan she'rlar yarata boshlagan adibni aniqlang.

- a) M. Shayxzoda
- b) Said Ahmad
- c) Asqad Muxtor
- d) Usmon Nosir

**29.M.** Shayxzodaning "O'rtoq mulk", "Tuproq haq" asarlari qaysi janrda yozilgan?

- a) dramatik
- b) epik

c)liro- epik

d)lirik

30.M. Shayxzodaning badiiy asarlar yozibgina qolmay yana qaysi sohalarda ham barakali ijod qilgan?

a)romannavislik

b)adabiyotshunoslik, adabiy tanqid

c)nonvoylik

d)musiqashunoslik

1.

***Minding ilm narvoniga***

***Chiqding funun osmoniga***

***Bu jahon ayvoniga***

***Arkon o'zing, vayron o'zing***

Ushbu she'riy parchadagi "arkon" so'zining ma'nosini izohlang.

a)obod

b)ustun

c)ostona

d)davlat

2."Orzu chashmasi", "Palatkada yozilgan doston", "Quyosh maskani" kabi qator dostonlar muallifini aniqlang.

a)Shavkat Rahmon

b)Erkin Vohidov

c)Abdulla Oripov

d)Azim Suyun

3.

***"Bas, yetar, yolg'on saodat,***

***Yolg'on erk, yolg'on vatan!"***

Yuqoridagi misralar Erkin Vohidovning qaysi she'ridan olingan?

a)Vatan istagi

b)Hozirgi yoshlar

c)Yolg'on saodat

d)Sirdaryo o'landi

4.70- 80- yillarda o'zbek she'riyatida "hayot kuychisi" nomini olgan shoirni ko'rsating.

- a) Muhhammad Yusuf
- b) Erkin Vohidov
- c) Rauf Parfi
- d) Mirmuhsin

5. Erkin Vohidov dostonlari sanalgan qatorni toping.

- a) barcha javoblar to'g'ri
- b) "Orzu chashmasi", "Quyosh maskani", "Ruhlar isyoni"
- c) "Nido", "Lirika", "Iztirob"
- d) "Ishq savdosi", "Umr daryosi", "Nido"

6. Nemis shoiri Gyotening "Faust" asarini o'zbek tiliga qaysi shoirimiz tarjima qilgan?

- a) Xurshid Davron
- b) Erkin Vohidov
- c) Abdulla Oripov
- d) S. Ahmad

7.

**"Oqib turgin, qurib qolma, onajon"** degan o'ta samimiy, cheksiz mehrga yo'g'rilgan misralar Erkin Vohidovning qaysi she'ridan olingan?

- a) Vatan istagi
- b) Yoshlik devoni
- c) Sirdaryo o'landi
- d) Ruhlar isyoni

8. Erkin Vohidovning ilk to'plami qanday nomlangan?

- a) "Hozirgi yoshlar"
- b) "tirik sayyoralar"
- c) "Tong nafasi"
- d) "Mening yulduzim"

9.

**"Mumtoz g'azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekildi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasida birinchilardan bo'lib aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi".**

Yuqoridagi fikrlar kim tomonidan va kimga nisbatan aytilgan?

- a) Abdulla Oripov S. Sayyidga
- b) Abdulla Oripov Sh. Rahmonga

c)Erkin Vohidov Iqbol Mirzoga

d)Abdulla Oripov Erkin Vohidovga

10. "Tong lavhasi", "Kamtarlik haqida", "Buloq", "Sevgi"  
she'rlarining muallifi kim?

a)Saida Zununova

b)Zulfiya

c)Erkin Vohidov

d)Abdulla Oripov

11. ***"XX asrning 70- yillari oxirida yozilgan bu dostondagi isyonkorona kurashchan ruh Qodiriy, Fitrat, Cho'lponlarga xos el- yurt g'ami, erki, ozodligi yo'lida kuyib- yonishlar bu davrda ham davom etayotganini tasdiqlaydi ..."***

Yuqorida qaysi doston haqida gap bormoqda?

a)Ko'k dengiz

b)Jannatga yo'l

c)Hakim va ajal

d)Ruhlar isyoni

12.

***"Zamon uning yonib turgan yuragini so'rardi"***.

Mazkur jumla qaysi asar qahramoniga nisbatan aytilgan?

a)Jannatga yo'l, do'st

b)Jannatga yo'l, Yigit

c)Qiyomat, Pochamir

d)Ruhlar isyoni, Nazrul Islom

13.

***44- yil. Sentabr tongi otdi.***

***Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi.***

***Ko'k jildimda alifbe va bir burda non,***

***Birinchi bor qadam qo'ydim maktab tamon.***

Ushbu parcha Erkin Vohidovning qaysi she'ridan olingan?

a)"Yoshlik devoni"

b)"Quyosh maskani"

c)"Lerika"

d)"Nido"

14. Erkin Vohidovning birinchi she'riy to'plami qanday nomlanadi?

- a) Sabr daraxti
- b) Mitti yulduz
- c) Xiyobon
- d) Tong nafasi

15.

***“U hali tug‘ilmasdan burun o‘z yurtidan judo etilgan edi ...”***

Yuqoridagi mulohazalar kim haqida?

- a) H. Olimjon
- b) U. Nosir
- c) Nazrul Islom
- d) R. Hamzatov

16. Erkin Vohidov ijodida o‘rinsiz faxr- iftixor tuyg‘usi bilan boyitilgan ba‘zi she‘rlarini uchratishimiz mumkin. Shunday she‘rlar berilgan qatorni toping.

- a) O‘zbekiston faxriyasi, Iftixor tuyg‘usi, O‘zbekiston kommunistlari
- b) Inson qasidasi, Iftixor tuyg‘usi, Hozirgi yoshlar
- c) Nido dostoni
- d) O‘zbekiston kommunistlari, O‘zbekiston faxriyasi, Inson qasidasi

17.

***“O‘zni ozod qush kabi ko‘rmoqni istar bu ko‘ngil ...”***

Ushbu misra muallifini aniqlang.

- a) Erkin Vohidov
- b) Abdulla Oripov
- c) U. Nosir
- d) H. Olimjon

18. Erkin Vohidovning “Nega bu kun bemadorsan, haloksan? . . .” misrasi uning qaysi she‘ridan olingan?

- a) Sirdaryo o‘lani
- b) Yaxshidir achchiq haqiqat
- c) Tush
- d) Ruhlar isyoni

19.

***Uning ayniqsa “Eron taronalari”, “Faust” tarjimalari adabiyotimiz va ma’naviy hayotimizda ulkan voqea bo‘ldi.***

Yuqorida qaysi atoqli adibimiz haqida gap bormoqda?

- a)U. Nosir.
- b)Abdulla Oripov.
- c)Erkin Vohidov.
- d)P. Qodirov.

1.Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridagi “bolangni jin urgan”, “otaginam sizga dev hamla qilgan”, - deb odamlarni aldagan va dorixonada sotiladigan oddiy dorilarni “Xudoi taolo ato qilgan noyob dorilar”- deb pullagan persanajni aniqlang.

- a)Mirobiddinxo‘ja
- b)Hayitvoy
- c)Soraxon
- d)Anorboy tog‘a

2.Qalami o‘tkir jurnalist, jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi 300 dan ortiq feleton yozgan, bola va o‘smir ruhidagi go‘zallikni himoyalashga e‘tibor beruvchi adib...

- a)O‘. Hoshimov
- b)Jonatan Svift
- c)A. Qahhor
- d)Xudoyberdi To‘xtaboyev

3.“Sariq devni minib” asarida Hoshimjon kimning yordami bilan agranom bo‘ladi?

- a)Rahimjon
- b)O‘rmon aka
- c)Akbar Nosirovich
- d)Polvon tog‘a

4.“Sariq devni minib” asarining ikkinchi bobi qanday nomlanadi?

- a)Barbod bo‘lgan o‘ylarim.
- b)Shaytonning yelkasiga igna sanchdim.
- c)Hashoratni kaltaklashga buyurdim.
- d)Baxtim kulib boqqan edi.

5.

“Sariq devni minib” asarida Hoshimjonning qishlog‘idagi bo‘lar-bo‘lmasga ham baqiradigan savodsiz agranom kim edi?

- a)Polvon tog‘a

**b)Anorboy tog‘a**

**c)O‘rmon aka**

**d)Shokirjon**

**6.Qaysi qatorda Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalarga bag‘ishlangan qissasi berilgan?**

**a)“Jannati odamlar”**

**b)“Hoshimboy”**

**c)“Omonboy va Davronboy sarguzashti”**

**d)“Qasoskorning oltin boshi”**

**7.Xudoyberdi To‘xtaboyevning qaysi asari ko‘pgina jahon tillariga- jami 24 tilga tarjima qilingan va buyuk bolalar yozuvchisi Janni Rodari tahsiniga sazovar bo‘lgan?**

**a)“Shirin qovunlar mamlakatida”**

**b)“Sariq devni minib”**

**c)“Sariq devning o‘limi”**

**d)“Qasoskorning oltin boshi”**

**8.Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida Hoshimjon qalpoqchanning sehriga to‘liq amin bo‘lgach, uning sehri kuchini dastlab nima maqsadda ishlatadi?**

**a)o‘rtoqlarini qo‘rqitish uchun ishlatadi**

**b)o‘qituvchilarning konspektlarini ko‘chirishda**

**c)agranom bo‘lish uchun ishlatadi**

**d)qishlog‘idagi folbinning yolg‘onchiligini fosh qilishda**

**9.Qaysi adib tarjimai holida “Ruhi pok bo‘lgan, tarbiyaga quloq soladigan, bolalar dunyosida ishlasam qanday bo‘lar ekan”, - deb o‘ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o‘smirlar dunyosiga paqqos o‘tib ketdim, deb ta‘kidlaydi?**

**a)Xudoyberdi To‘xtaboyev**

**b)G‘afur G‘ulom**

**c)Jonatan Svift**

**d)Chingiz Aytmatov**

**10.Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridagi qaysi qahramoni jinday quv, ayyor, bir qadar lofchi bo‘lsa- da, aslida sofdil, ko‘ngli beg‘araz inson sifatida tasvirlanadi?**

**a)Hayitvoy**

**b)Mirobiddinxo‘ja**

**c)Hoshimjon**



**d)Shokirjon**

**11.**Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida Hoshimjon sehrli qalpoqcha haqida kimdan eshitadi?

**a)**o‘qituvchisidan

**b)**Anorboy tog‘adan

**c)**buvisidan

**d)**onasidan

**12.**O‘sha kuni ikkovimiz uning “Villis”iga o‘tirib, dala aylandik, “Sariq devni minib” asaridagi Hoshimjonning hamrohi qaysi qatordab to‘g‘ri berilgan?

**a)**Akbar aka Nosirov

**b)**Hayitvoy

**c)**Xursanali Sharafiddinovich

**d)**Polvon tog‘a

**13.**Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida Hoshimjon qaysi cho‘lning o‘zlashtirilayotgan paytiga duch kelib qoladi?

**a)**Qizilqum cho‘li

**b)**Mirzacho‘l

**c)**Jizzax cho‘li

**d)**Qarshi cho‘li